Yurtboshimiz islohotlarimizning ilk kunlaridanoq, barcha sohalar qatori jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga ham katta e’tibor qaratildi. Olimpiya harakati targ‘ibotini eng quyi bo‘g‘indan boshlash va seleksiyani kengaytirish maqsadida uch bosqichli “Prezident Olimpiadasi” kompleks sport musobaqalari tizimini yo‘lga qo‘yildi. Bu musobaqalarning har bir bosqichiga xalqaro sport mezonlari va talablari tatbiq qilindi.

2023-yilning 14-15 dekabr kunlari Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti xodimlari belbog‘li kurash bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasi a’zolari, belbog‘li kurash bo‘yicha 2 karra jahon chempioni Zaylobiddin Artikov va uning shogirdlari bir necha bor O‘zbekiston chempionlari Muhammadjonov Aziz, Mirzaxmatov Ilyos hamda Burxonov Jasurbeklarda musobaqalarga tayyorgarlik davrida jismoniy tayyorgarlik va funksional holati ustida tekshiruvlar o‘tkazildi.

Tadqiqotda dastlab antropometrik ko‘rsatkichlari, funksional holatini aniqlash maqsadida spirograf yordamida O‘TS va mashg‘ulotlarda yuklamalarni nazorat qilishda Polar H 10 yurak qisqarish sonini o‘lchovchi tasma orqali organizmni yuklamalarga ta’siri hamda EKG yordamida yurak faoliyati o‘rganildi. Shu bilan birga, belbog‘li kurashchilarni bel kuchi va qo‘l panja kuchlari nazoratdan o‘tkazildi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar quyidagi jadvalda ifoda etildi.

Belbog'li kurashchilarni antropometrik va jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari

T/r	Sportchilarning F.I.SH.	Tana uzunligi	Tana og'irligi	Bel kuchi	O'ng qo'l panja kuchi	Chap qo'l panja kuchi
1	Artikov Zaylobiddin	170	112	200	64,4	60,8
2	Muxammadjonov Aziz	169	70	140	42,5	36,2
3	Miraxmatov Ilyos	188	180	180	58,4	48,3
4	Burxonov Jasurbek	169	76	145	52,4	41,4

Olingan natijalarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Artikov Zaylobiddinda tana uzunligi 170 sm, tana og'irligi 112 kg, bel kuchi 200 kg, o'ng qo'l panja kuchi 56,4 kg va chap qo'l panja kuchi 60,8 kg.ni tashkil etdi.



Muxammadjonov Azizda esa tana uzunligi 169 sm, tana og'irligi 70 kg, bel kuchi 140 kg, o'ng qo'l panja kuchi 42,5 kg va chap qo'l panja kuchi 36,2 kg.ni tashkil etdi.

Miraxmatov Ilyosda esa tana uzunligi 188 sm, tana og'irligi 112 kg, bel kuchi 180 kg, o'ng qo'l panja kuchi 58,4 kg va chap qo'l panja kuchi 48,3 kg.ni tashkil etdi. Burxonov Jasurbekda esa tana uzunligi 169 sm, tana og'irligi 76 kg, bel kuchi 145 kg, o'ng qo'l panja kuchi 52,4 kg va chap qo'l panja kuchi 41,4 kg.ni tashkil etdi.



Olingan natijalar asosida, belbog'li kurashchilarni hamda zaxiradagi sportchilarni tayyorlash jarayonida mashq bajarish qobiliyatini nazorat qilish va kurashchilarning ish bajarish mahoratini takomillashtirish yo'li bilan sportchilarni musobaqalarga tayyorlash metodikasi haqida fikrlar almashilindi. Tadqiqot so'ngida sportchiga tayyorgarlik davrini to'g'ri rejalashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar berib o'tildi.


§1.15. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi kursantlarining funksional va antropometrik ko‘rsatkichlari bo‘yicha olingan natijalar tahlili


O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi “Jismoniy tayyorgarlik va sport” kafedrasi boshlig‘i polkovnik S. Abduazimov va O‘zbekiston Respublikasi yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti xodimlari “Sportda saralash, modellashtirish va bashorat qilish” laboratoriyasi mudiri pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) D. Tashnazarov, “Ommaviy sportni tadqiq qilish” laboratoriyasi mudiri pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) G‘. Xo‘jamkeldiyev, “Sportchilarni funksional va psixodiagnostika tahlil qilish” laboratoriyasi mudiri pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) R. Burnashev bilan birgalikda 2023-yil 16-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasida kursantlarini Antropometrik ko‘rsatkichlari (tana uzunligi, tana og‘irligi, ko‘krak qafasining aylanasi tinch holatda, ko‘krak qafasining aylanasi nafas olganda, qo‘l uzunligi oyoq uzunligi, bilak aylanasi, son aylanasi, o‘pkaning tiriklay sig‘imi) tekshiruvdan o‘tkazildi.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlar akademiyasi kursantlarining qo‘l panja va bel kuchi ko‘rsatkichlari

T/r	F.I.SH	DINOMOMETR			
		Yoshi	O‘ng qo‘l panja kuchi	Chap qo‘l panja kuchi	Bel kuchi
1	Teshayev Zuhriddin	19	44,8	45,4	95
2	Sharipov Aliyor	19	46,4	53,6	130
3	Abdullayev Avaz	19	44,1	46,9	120
4	Baxronov Sevdiyor	19	51,4	54,9	110
5	Berdiyorov Samariddin	19	54,9	49,5	130
6	Boymirzayev Nodir	19	48,6	38,3	60
7	Nabiyev Temur	19	60,3	57,8	105
8	Ismoilov Davron	19	45,9	41,3	110
9	Tolipov Shoxrux	19	40,4	39,3	63
10	Sultonmurodov Shoxrux	19	49,1	50,7	110
11	Yusupov Fatxulla	19	63,4	54,8	135
12	Nabijonov Jamoliddin	19	44,8	47,7	120
13	Saidov Eldor	19	43,2	45,5	140
14	Abdullayev Botir	19	63,2	58,8	90
15	Abduraxmonov Axmat	19	51,8	55,2	130
O‘rtachasi		**19**	**50,15**	**49,31**	**109,87**

2023 yil 10 noyabrda polkovnik S. Abduazimov boshchiligida 10 nafar kursant Jismoniy tarbiya va ilmiy tadqiqotlar institutida laboratoriya sharoitida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi kursantlarining "Polar H 10" qurilmasida Bioimpedansometriya metodi yordamida kursantlarning (organizmni yog' miqdori, organizmda suvning miqdori, mushak massasi, organizmda metabolizm , tana tuzilishi tipi, biologik yoshi, suyak massasi zichligi indeksi, organizmning ichki yog'i) funksional tayyorgarliklari sinovdan o'tkazildi.





Unga ko'ra, Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti xodimlari O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlar akademiyasi kursantlarining qo'l panja va bel kuchini qay darajada rivojlanganlik darajasini aniqlash maqsadida dinamometr orqali kuch sifatini nazoratdan o'tkazildi. Tadqiqotga jalb qilingan kursantlarning ko'rsatgan natijalari quyidagi jadvalda ifoda etildi.

Qurolli kuchlar akademiyasi kursantlarini Polar H 10 qurilmasi yordamida funksional holatini baholash. Tadqiqotda davomida olingan natijalar quyidagicha ifodalandi. Unga ko'ra, kursantlarning o'rtacha yoshi o'rtacha 19 yoshni tashkil etdi. O'ng qo'l panja kuchi o'rtacha 50.15 kgni tashkil etgan bo'lsa, chap qo'l panja kuchi esa 49, 31 kg.ni tashkil qildi. Bel

kuchi ko‘rsatkichi o‘rtacha 109.87 kg.ni tashkil etdi. Ushbu kursantlarda 5 marta 5 daqiqali yugurish va velotrenajor mashqlari ustida tekshiruv o‘tkazildi. Ushbu mashqlarni bajarishga ketgan umumiy vaqt 40 daqiqa 10 soniya davom etdi. Mashg‘ulot davomida YUQS maksimal 175 zar/daq. va o‘rtacha 132 zar/daq.ni tashkil etdi. Ushbu mashg‘ulot uchun 349 kkal va 25 % yog‘ sarfladi.

Mashqlarni YUQS 140 zar/daq.dan yuqori bajarish vaqti yani anaerob zonada 17:14 daq. mashq bajargan bo‘lsa, 22:55 daqiqa aerob zonada mashq bajardi.

Mashg‘ulot – hajmli bir maromli mashg‘ulot kuzatildi. Funksional holati juda yaxshi. Jismoniy mashqlar davomida umumiy chidamlilik va tanangizning yog‘ni sarflash qobiliyati rivojlantirildi. Shuningdek, mushaklarning chidamliligi rivojlantirtirildi va aerob rejimda ishlash yaxshilandi.

Ushbu kursantlarni 5 ta shiddat zonasi bo‘yicha ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, kichik zonada 14:03 daqiqa, o‘rta zonada 8:42 daqiqa, katta zonada 11:17 daqiqa va submaksimal zonada 5.18 daqiqa mashg‘ulotlarni olib bordi. Maksimal zonada YUQS kuzatiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlar akademiyasi kursantlarining antropometrik va funksional ko‘rsatkichlari

T/r	Respondentning F.I.SH.	Tana uzunligi (sm)	Vazn (kg)	Ko‘krak qafasi aylanasi (tinch holatda), (sm)	Ko‘krak qafasi aylanasi (nafas olganda), (sm)	Ko‘krak qafasi aylanasi (nafas chiqarganda), (sm)	Qo‘l uzunligi (sm)	Oyoq uzunligi, (sm)	Bilak aylanasi, (sm)	Son aylanasi, (sm)	Spirometr (litr)
1	Teshayev Zuhriddin	177		93	97	91	75	102	31	59	3,6
2	Sharipov Aliyor	173		91	92	86	77	110	30	49	3,7
3	Abdullayev Avaz	168		91	96	90	72	95	22	48	3,5
4	Baxronov Sevdiyor	174		89	92,5	87	77	101	28,5	50	3,5
5	Berdiyorov Samariddin	174,5		94	95,5	91	73	100	29	53	3,8
6	Boymirzayev Nodir	169		84	87,5	82	74	99	28	51	3,8
7	Nabiyev Temur	171,5		88	93	86	75	99	32	54	4,2
8	Ismoilov Davron	175		85	91	85	76	99	27	46	4,3
9	Tolipov Shoxrux	175,5		89	87	94	76	98	30	49	4,4
10	Sultonmurodov Shoxrux	180		87	91,5	86,5	78	102	26,5	51	3,9
11	Yusupov Fatxulla	176,5		86	89,5	85	77	99	27	47,5	3,9
12	Nabijonov Jamoliddin	172,5		87	90	85	76	98	29	47	3,8
13	Saidov Eldor	170		85,5	89,5	84,5	78	102	27	39	3,6
14	Abdullayev Botir	176		93	98,5	93	78	101	29	52	4,9
15	Abduraxmonov Axmat	171		85,5	88,5	83	75	100	26	42	3,2
	O‘rtachasi	**173,57**		**88,53**	**91,93**	**87,27**	**75,8**	**100,33**	**28,13**	**49,16**	**3,87**

Ushbu kursantlarda 5 marta 5 daqiqalik yugurish va velotrenajor mashqlari ustida tekshiruv o'tkazildi. Bunda birinchi 5 daqiqalik velotrenajor mashqidan so'ng o'rtacha YUQS 156 zarb/daq. kuzatildi va tiklanish vaqti 2 daq.ni tashkil etdi. Keyingi 5 daq.li yugurishda 175 zarb/daq. va tiklanishga ketgan vaqt 2:30 daqiqani tashkil etdi. Navbatdagi 5 daqiqali yugurishda o'rtacha YUQS 164 zarb/daq. kuzatilgan bo'lsa, tiklanishiga ketgan vaqt 3 daq.ni tashkil etdi. Oxirgi 5 daqiqali yugurishda o'rtacha YUQS 156 zar|daq.ni tashkil etgan bo'lsa, tiklanish vaqti 2 daqiqa davomida organizmi tiklanganini ushbu rasmdan ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlar akademiyasi kursantlarining antropometrik va funksional ko'rsatkichlari quyidagicha xulosa qilish imkonini berdi. unga ko'ra, kursantlarning tana uzunligi o'rtacha 173.57 sm kuzatilgan bo'lsa, tana vazning og'irligi 67 kg.ni tashkil etdi. Tinch holatda ko'krak qafasi aylanasi 88.53 sm, nafas olganda 91.93 sm.ni va nafasni chiqarganda esa 87,27 sm kuzatilganligini ko'rishimiz mumkin. Kursantlarning qo'l uzunligi o'rtacha 75.8 sm kuzatilgan bo'lsa, oyoq uzunligi esa o'rtacha 100.33 sm. ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bilak aylanasi o'rtacha 28.13 sm.ni tashkil etgan bo'lsa, oyoqning son aylanasi 49.16 sm ekanligi kuzatildi. O'pkaning tiriklik sig'imi o'rtacha 3870 litr kuzatilganligini ushbu jadvalda ko'rishimiz mumkin.

Bioimpedansometriya metodi yordamida tana tarkibini aniqlash tahlili

Bioimpedansometriya metodi yordamida tana tarkibini quyidagi ko'rsatkichlar vazni, tanadagi umumiy yog', tanadagi umumiy suvi, mushak massasi, tana tuzilishi tipi, metabolizm tezligi (kkal), biologik yoshi, suyak massasi zichligi indeksi va tanadagi ichki yog'ini aniqlash bo'yicha imkonini beradi.

Biz bosqon uloqtiruvchi sportchilar bilan tajriba o'tkazdik. Ushbu tadqiqot natijalari quyidagi natijalarni berdi.

Teshayev Zuxriddin

Tana uzunligi 177 sm, **vazni** esa 77,5 kg. tashkil etdi.

Organizmni yog' miqdori foizi 9,6 % ni tashkil etdi. Me'yor bo'yicha – o'rtadan past darajada hisoblanadi.

Organizmda suvning foiz miqdori 63,5% ni tashkil qildi. inson organizmida suvning miqdori me'yor bo'yicha 60-70 % dan iborat bo'ladi. Ushbu sportchimizning suv miqdori me'yorda kuzatildi.

Tana tuzilishi 5-tipga mansub. Mashqlangan tip hisoblanadi ya'ni sport bilan muntazam shug'ullanib kelmoqda.

Mushak massasi – 66,6 kg.ni tashkil etdi. Me'yor bo'yicha — yuqori darajada ekanligi aniqlandi. Bu albatta yaxshi.

Organizmda metabolizm 2076 kkal miqdori kuzatildi.

Biologik yoshi 12 yosh deb topildi va bu pasport yoshiga nisbatan me'yor hisoblanadi (Biologik yosh – organizmni morfa-funksional xususiyatlari-jismoniy rivojlanish, salomatlik darajasi bilan belgilanadi).

Suyak massasi zichligi indeksi – 3,5 kg tashkil etdi. Me'yor bo'yicha yuqori darajada hisoblanadi.

Organizmning ichki yog'i ham 1 kg tashkil etdi. Bu ham past darajada. **Tavsiyamiz**

Xulosa. Ushbu sportchimizni tana tarkibi me'yorida deb baholandi.

Sharipov Aliyer

Tana uzunligi 173 sm, **vazni** esa 70,9 kg. tashkil etdi.

Organizmni yog' miqdori foizi 6,5 % ni tashkil etdi. Me'yor bo'yicha – o'rtadan past darajada hisoblanadi.

Organizmda suvning foiz miqdori 67% ni tashkil qildi. inson organizmida suvning miqdori me'yor bo'yicha 60-70 % dan iborat bo'ladi. Ushbu sportchimizning suv miqdori me'yorda kuzatildi.

Tana tuzilishi 8-tipga mansub. Mashqlangan tip hisoblanadi ya'ni sport bilan muntazam shug'ullanib kelmoqda.

Mushak massasi – 63 kg.ni tashkil etdi. Me'yor bo'yicha — yuqori darajada ekanligi aniqlandi. Bu albatta yaxshi.

Organizmda metabolizm 1953 kkal miqdori kuzatildi.

Biologik yoshi 12 yosh deb topildi va bu pasport yoshiga nisbatan me'yor hisoblanadi (Biologik yosh – organizmni morfa-funksional xususiyatlari-jismoniy rivojlanish, salomatlik darajasi bilan belgilanadi).

Suyak massasi zichligi indeksi – 3,3 kg tashkil etdi. Me'yor bo'yicha yuqori darajada hisoblanadi.

Organizmning ichki yog‘i ham 1 kg tashkil etdi. Bu ham past darajada. **Tavsiyamiz**

Xulosa. Ushbu sportchimizni tana tarkibi me’yorida deb baholandi.

Abdullayev Avaz

Tana uzunligi 168 sm, **vazni** esa 56,6 kg. tashkil etdi.

Organizmni yog‘ miqdori foizi 5 % ni tashkil etdi. Me’yor bo‘yicha – o‘rtadan past darajada hisoblanadi.

Organizmda suvning foiz miqdori 71% ni tashkil qildi. inson organizmida suvning miqdori me’yor bo‘yicha 60-70 % dan iborat bo‘ladi. Ushbu sportchimizning suv miqdori me’yorda kuzatildi.

Tana tuzilishi 8-tipga mansub. Mashqlangan tip hisoblanadi ya’ni sport bilan muntazam shug‘ullanib kelmoqda.

Mushak massasi – 51,1 kg.ni tashkil etdi. Me’yor bo‘yicha — yuqori darajada ekanligi aniqlandi. Bu albatta yaxshi.

Organizmda metabolizm 1593 kkal miqdori kuzatildi.

Biologik yoshi 12 yosh deb topildi va bu pasport yoshiga nisbatan me’yor hisoblanadi (Biologik yosh – organizmni morfa-funksional xususiyatlari-jismoniy rivojlanish, salomatlik darajasi bilan belgilanadi).

Suyak massasi zichligi indeksi – 2,7 kg tashkil etdi. Me’yor bo‘yicha yuqori darajada hisoblanadi.

Organizmning ichki yog‘i ham 1 kg tashkil etdi. Bu ham past darajada. **Tavsiyamiz**

Xulosa. Ushbu sportchimizni tana tarkibi me’yorida deb baholandi.

Baxromov Sevdiyor

Tana uzunligi 174 sm, **vazni** esa 70,4 kg. tashkil etdi.

Organizmni yog‘ miqdori foizi 5,6 % ni tashkil etdi. Me’yor bo‘yicha – o‘rtadan past darajada hisoblanadi.

Organizmda suvning foiz miqdori 67,9% ni tashkil qildi. inson organizmida suvning miqdori me’yor bo‘yicha 60-70 % dan iborat bo‘ladi. Ushbu sportchimizning suv miqdori me’yorda kuzatildi.

Tana tuzilishi 8-tipga mansub. Mashqlangan tip hisoblanadi ya’ni sport bilan muntazam shug‘ullanib kelmoqda.

Mushak massasi – 63,4 kg.ni tashkil etdi. Me'yor bo'yicha — yuqori darajada ekanligi aniqlandi. Bu albatta yaxshi.

Organizmda metabolizm 1964 kkal miqdori kuzatildi.

Biologik yoshi 12 yosh deb topildi va bu pasport yoshiga nisbatan me'yor hisoblanadi (Biologik yosh – organizmni morfa-funksional xususiyatlari-jismoniy rivojlanish, salomatlik darajasi bilan belgilanadi).

Suyak massasi zichligi indeksi – 3,3 kg tashkil etdi. Me'yor bo'yicha yuqori darajada hisoblanadi.

Organizmning ichki yog'i ham 1 kg tashkil etdi. Bu ham past darajada. **Tavsiyamiz**

Xulosa. Ushbu sportchimizni tana tarkibi me'yorida deb baholandi.

Berdiyorov Samariddin

Tana uzunligi 175 sm, **vazni** esa 74 kg. tashkil etdi.

Organizmni yog' miqdori foizi 8 % ni tashkil etdi. Me'yor bo'yicha – o'rtadan past darajada hisoblanadi.

Organizmda suvning foiz miqdori 65,2% ni tashkil qildi. inson organizmida suvning miqdori me'yor bo'yicha 60-70 % dan iborat bo'ladi. Ushbu sportchimizning suv miqdori me'yorda kuzatildi.

Tana tuzilishi 8-tipga mansub. Mashqlangan tip hisoblanadi ya'ni sport bilan muntazam shug'ullanib kelmoqda.

Mushak massasi – 64,7 kg.ni tashkil etdi. Me'yor bo'yicha — yuqori darajada ekanligi aniqlandi. Bu albatta yaxshi.

Organizmda metabolizm 2010 kkal miqdori kuzatildi.

Biologik yoshi 12 yosh deb topildi va bu pasport yoshiga nisbatan me'yor hisoblanadi (Biologik yosh – organizmni morfa-funksional xususiyatlari-jismoniy rivojlanish, salomatlik darajasi bilan belgilanadi).

Suyak massasi zichligi indeksi – 3,4 kg tashkil etdi. Me'yor bo'yicha yuqori darajada hisoblanadi.

Organizmning ichki yog'i ham 1 kg tashkil etdi. Bu ham past darajada. **Tavsiyamiz**

Xulosa. Ushbu sportchimizni tana tarkibi me'yorida deb baholandi.

Boymirzayev Nodirbek

Tana uzunligi 169 sm, **vazni** esa 63,2 kg. tashkil etdi.

Organizmni yog‘ miqdori foizi 6,1 % ni tashkil etdi. Me’yor bo‘yicha – o‘rtadan past darajada hisoblanadi.

Organizmda suvning foiz miqdori 67,2% ni tashkil qildi. inson organizmida suvning miqdori me’yor bo‘yicha 60-70 % dan iborat bo‘ladi. Ushbu sportchimizning suv miqdori me’yorda kuzatildi.

Tana tuzilishi 8-tipga mansub. Mashqlangan tip hisoblanadi ya’ni sport bilan muntazam shug‘ullanib kelmoqda.

Mushak massasi – 56,3 kg.ni tashkil etdi. Me’yor bo‘yicha — yuqori darajada ekanligi aniqlandi. Bu albatta yaxshi.

Organizmda metabolizm 1749 kkal miqdori kuzatildi.

Biologik yoshi 12 yosh deb topildi va bu pasport yoshiga nisbatan me’yor hisoblanadi (Biologik yosh – organizmni morfa-funksional xususiyatlari-jismoniy rivojlanish, salomatlik darajasi bilan belgilanadi).

Suyak massasi zichligi indeksi – 3 kg tashkil etdi. Me’yor bo‘yicha yuqori darajada hisoblanadi.

Organizmning ichki yog‘i ham 1 kg tashkil etdi. Bu ham past darajada. **Tavsiyamiz**

Xulosa. Ushbu sportchimizni tana tarkibi me’yorida deb baholandi.

Nabiyev Temirbek

Tana uzunligi 171 sm, **vazni** esa 69,6 kg. tashkil etdi.

Organizmni yog‘ miqdori foizi 5 % ni tashkil etdi. Me’yor bo‘yicha – o‘rtadan past darajada hisoblanadi.

Organizmda suvning foiz miqdori 71% ni tashkil qildi. inson organizmida suvning miqdori me’yor bo‘yicha 60-70 % dan iborat bo‘ladi. Ushbu sportchimizning suv miqdori me’yorda kuzatildi.

Tana tuzilishi 8-tipga mansub. Mashqlangan tip hisoblanadi ya’ni sport bilan muntazam shug‘ullanib kelmoqda.

Mushak massasi – 62,8 kg.ni tashkil etdi. Me’yor bo‘yicha — yuqori darajada ekanligi aniqlandi. Bu albatta yaxshi.

Organizmda metabolizm 1943 kkal miqdori kuzatildi.

Biologik yoshi 12 yosh deb topildi va bu pasport yoshiga nisbatan me’yor hisoblanadi (Biologik yosh – organizmni morfa-funksional xususiyatlari-jismoniy rivojlanish, salomatlik darajasi bilan belgilanadi).

Suyak massasi zichligi indeksi – 3,3 kg tashkil etdi. Me'yor bo'yicha yuqori darajada hisoblanadi.

Organizmning ichki yog'i ham 1 kg tashkil etdi. Bu ham past darajada. **Tavsiyamiz**

Xulosa. Ushbu sportchimizni tana tarkibi me'yorida deb baholandi.

Ismoilov Davron

Tana uzunligi 175 sm, **vazni** esa 64,4 kg. tashkil etdi.

Organizmni yog' miqdori foizi 5 % ni tashkil etdi. Me'yor bo'yicha – o'rtadan past darajada hisoblanadi.

Organizmda suvning foiz miqdori 67,8% ni tashkil qildi. inson organizmida suvning miqdori me'yor bo'yicha 60-70 % dan iborat bo'ladi. Ushbu sportchimizning suv miqdori me'yorda kuzatildi.

Tana tuzilishi 8-tipga mansub. Mashqlangan tip hisoblanadi ya'ni sport bilan muntazam shug'ullanib kelmoqda.

Mushak massasi – 58,1 kg.ni tashkil etdi. Me'yor bo'yicha — yuqori darajada ekanligi aniqlandi. Bu albatta yaxshi.

Organizmda metabolizm 1799 kkal miqdori kuzatildi.

Biologik yoshi 12 yosh deb topildi va bu pasport yoshiga nisbatan me'yor hisoblanadi (Biologik yosh – organizmni morfa-funksional xususiyatlari-jismoniy rivojlanish, salomatlik darajasi bilan belgilanadi).

Suyak massasi zichligi indeksi – 3,1 kg tashkil etdi. Me'yor bo'yicha yuqori darajada hisoblanadi.

Organizmning ichki yog'i ham 1 kg tashkil etdi. Bu ham past darajada. **Tavsiyamiz**

Xulosa. Ushbu sportchimizni tana tarkibi me'yorida deb baholandi.

Tolipov Shuxrat

Tana uzunligi 175,5 sm, **vazni** esa 72,3 kg. tashkil etdi.

Organizmni yog' miqdori foizi 7,2 % ni tashkil etdi. Me'yor bo'yicha – o'rtadan past darajada hisoblanadi.

Organizmda suvning foiz miqdori 65,8% ni tashkil qildi. inson organizmida suvning miqdori me'yor bo'yicha 60-70 % dan iborat bo'ladi. Ushbu sportchimizning suv miqdori me'yorda kuzatildi.

Tana tuzilishi 8-tipga mansub. Mashqlangan tip hisoblanadi ya'ni sport bilan muntazam shug'ullanib kelmoqda.

Mushak massasi – 63,7 kg.ni tashkil etdi. Me'yor bo'yicha — yuqori darajada ekanligi aniqlandi. Bu albatta yaxshi.

Organizmda metabolizm 1979 kkal miqdori kuzatildi.

Biologik yoshi 12 yosh deb topildi va bu pasport yoshiga nisbatan me'yor hisoblanadi (Biologik yosh – organizmni morfa-funksional xususiyatlari-jismoniy rivojlanish, salomatlik darajasi bilan belgilanadi).

Suyak massasi zichligi indeksi – 3,3 kg tashkil etdi. Me'yor bo'yicha yuqori darajada hisoblanadi.

Organizmning ichki yog'i ham 1 kg tashkil etdi. Bu ham past darajada. **Tavsiyamiz**

Xulosa. Ushbu sportchimizni tana tarkibi me'yorida deb baholandi.

Sultonmurodov Shoxrux

Tana uzunligi 180 sm, **vazni** esa 69,4 kg. tashkil etdi.

Organizmni yog' miqdori foizi 5% ni tashkil etdi. Me'yor bo'yicha – o'rtadan past darajada hisoblanadi.

Organizmda suvning foiz miqdori 68,9% ni tashkil qildi. inson organizmida suvning miqdori me'yor bo'yicha 60-70 % dan iborat bo'ladi. Ushbu sportchimizning suv miqdori me'yorda kuzatildi.

Tana tuzilishi 8-tipga mansub. Mashqlangan tip hisoblanadi ya'ni sport bilan muntazam shug'ullanib kelmoqda.

Mushak massasi – 62,6 kg.ni tashkil etdi. Me'yor bo'yicha — yuqori darajada ekanligi aniqlandi. Bu albatta yaxshi.

Organizmda metabolizm 1938 kkal miqdori kuzatildi.

Biologik yoshi 12 yosh deb topildi va bu pasport yoshiga nisbatan me'yor hisoblanadi (Biologik yosh – organizmni morfa-funksional xususiyatlari-jismoniy rivojlanish, salomatlik darajasi bilan belgilanadi).

Suyak massasi zichligi indeksi – 3,3 kg tashkil etdi. Me'yor bo'yicha yuqori darajada hisoblanadi.

Organizmning ichki yog'i ham 1 kg tashkil etdi. Bu ham past darajada. **Tavsiyamiz**

Xulosa. Ushbu sportchimizni tana tarkibi me'yorida deb baholandi.

Yusupov Fatxulla

Tana uzunligi 176,5 sm, **vazni** esa 67,7 kg. tashkil etdi.

Organizmni yog‘ miqdori foizi 8,1% ni tashkil etdi. Me’yor bo‘yicha – o‘rtadan past darajada hisoblanadi.

Organizmda suvning foiz miqdori 64,2% ni tashkil qildi. inson organizmida suvning miqdori me’yor bo‘yicha 60-70 % dan iborat bo‘ladi. Ushbu sportchimizning suv miqdori me’yorda kuzatildi.

Tana tuzilishi 8-tipga mansub. Mashqlangan tip hisoblanadi ya’ni sport bilan muntazam shug‘ullanib kelmoqda.

Mushak massasi – 59,1 kg.ni tashkil etdi. Me’yor bo‘yicha — yuqori darajada ekanligi aniqlandi. Bu albatta yaxshi.

Organizmda metabolizm 1840 kkal miqdori kuzatildi.

Biologik yoshi 12 yosh deb topildi va bu pasport yoshiga nisbatan me’yor hisoblanadi (Biologik yosh – organizmni morfa-funksional xususiyatlari-jismoniy rivojlanish, salomatlik darajasi bilan belgilanadi).

Suyak massasi zichligi indeksi – 3,1 kg tashkil etdi. Me’yor bo‘yicha yuqori darajada hisoblanadi.

Organizmning ichki yog‘i ham 1 kg tashkil etdi. Bu ham past darajada. **Tavsiyamiz**

Xulosa. Ushbu sportchimizni tana tarkibi me’yorida deb baholandi.

Nabijonov Jamoliddin

Tana uzunligi 173 sm, **vazni** esa 66,8 kg. tashkil etdi.

Organizmni yog‘ miqdori foizi 6,4% ni tashkil etdi. Me’yor bo‘yicha – o‘rtadan past darajada hisoblanadi.

Organizmda suvning foiz miqdori 66,5% ni tashkil qildi. inson organizmida suvning miqdori me’yor bo‘yicha 60-70 % dan iborat bo‘ladi. Ushbu sportchimizning suv miqdori me’yorda kuzatildi.

Tana tuzilishi 8-tipga mansub. Mashqlangan tip hisoblanadi ya’ni sport bilan muntazam shug‘ullanib kelmoqda.

Mushak massasi – 59,4 kg.ni tashkil etdi. Me’yor bo‘yicha — yuqori darajada ekanligi aniqlandi. Bu albatta yaxshi.

Organizmda metabolizm 1842 kkal miqdori kuzatildi.

Biologik yoshi 12 yosh deb topildi va bu pasport yoshiga nisbatan me'yor hisoblanadi (Biologik yosh – organizmni morfa-funksional xususiyatlari-jismoniy rivojlanish, salomatlik darajasi bilan belgilanadi).

Suyak massasi zichligi indeksi – 3,1 kg tashkil etdi. Me'yor bo'yicha yuqori darajada hisoblanadi.

Organizmning ichki yog'i ham 1 kg tashkil etdi. Bu ham past darajada. **Tavsiyamiz**

Xulosa. Ushbu sportchimizni tana tarkibi me'yorida deb baholandi.

Saidov Eldor

Tana uzunligi 170 sm, **vazni** esa 62,9 kg. tashkil etdi.

Organizmni yog' miqdori foizi 6,2% ni tashkil etdi. Me'yor bo'yicha – o'rtadan past darajada hisoblanadi.

Organizmda suvning foiz miqdori 66,8% ni tashkil qildi. inson organizmida suvning miqdori me'yor bo'yicha 60-70 % dan iborat bo'ladi. Ushbu sportchimizning suv miqdori me'yorda kuzatildi.

Tana tuzilishi 8-tipga mansub. Mashqlangan tip hisoblanadi ya'ni sport bilan muntazam shug'ullanib kelmoqda.

Mushak massasi – 56 kg.ni tashkil etdi. Me'yor bo'yicha — yuqori darajada ekanligi aniqlandi. Bu albatta yaxshi.

Organizmda metabolizm 1740 kkal miqdori kuzatildi.

Biologik yoshi 12 yosh deb topildi va bu pasport yoshiga nisbatan me'yor hisoblanadi (Biologik yosh – organizmni morfa-funksional xususiyatlari-jismoniy rivojlanish, salomatlik darajasi bilan belgilanadi).

Suyak massasi zichligi indeksi – 3 kg tashkil etdi. Me'yor bo'yicha yuqori darajada hisoblanadi.

Organizmning ichki yog'i ham 1 kg tashkil etdi. Bu ham past darajada. **Tavsiyamiz**

Xulosa. Ushbu sportchimizni tana tarkibi me'yorida deb baholandi.

Abdullayev Botir

Tana uzunligi 176 sm, **vazni** esa 74,7 kg. tashkil etdi.

Organizmni yog' miqdori foizi 7,7% ni tashkil etdi. Me'yor bo'yicha – o'rtadan past darajada hisoblanadi.

Organizmda suvning foiz miqdori 65,4% ni tashkil qildi. inson organizmida suvning miqdori me'yor bo'yicha 60-70 % dan iborat bo'ladi. Ushbu sportchimizning suv miqdori me'yorda kuzatildi.

Tana tuzilishi 8-tipga mansub. Mashqlangan tip hisoblanadi ya'ni sport bilan muntazam shug'ullanib kelmoqda.

Mushak massasi – 65,6 kg.ni tashkil etdi. Me'yor bo'yicha — yuqori darajada ekanligi aniqlandi. Bu albatta yaxshi.

Organizmda metabolizm 2037 kkal miqdori kuzatildi.

Biologik yoshi 12 yosh deb topildi va bu pasport yoshiga nisbatan me'yor hisoblanadi (Biologik yosh – organizmni morfa-funksional xususiyatlari-jismoniy rivojlanish, salomatlik darajasi bilan belgilanadi).

Suyak massasi zichligi indeksi – 3,4 kg tashkil etdi. Me'yor bo'yicha yuqori darajada hisoblanadi.

Organizmning ichki yog'i ham 1 kg tashkil etdi. Bu ham past darajada. **Tavsiyamiz**

Xulosa. Ushbu sportchimizni tana tarkibi me'yorida deb baholandi.

Sultonmurodov Shoxrux

Tana uzunligi 171 sm, **vazni** esa 59,6 kg. tashkil etdi.

Organizmni yog' miqdori foizi 5,5% ni tashkil etdi. Me'yor bo'yicha – o'rtadan past darajada hisoblanadi.

Organizmda suvning foiz miqdori 59,6% ni tashkil qildi. inson organizmida suvning miqdori me'yor bo'yicha 60-70 % dan iborat bo'ladi. Ushbu sportchimizning suv miqdori me'yorda kuzatildi.

Tana tuzilishi 8-tipga mansub. Mashqlangan tip hisoblanadi ya'ni sport bilan muntazam shug'ullanib kelmoqda.

Mushak massasi – 53,5 kg.ni tashkil etdi. Me'yor bo'yicha — yuqori darajada ekanligi aniqlandi. Bu albatta yaxshi.

Organizmda metabolizm 1664 kkal miqdori kuzatildi.

Biologik yoshi 12 yosh deb topildi va bu pasport yoshiga nisbatan me'yor hisoblanadi (Biologik yosh – organizmni morfa-funksional xususiyatlari-jismoniy rivojlanish, salomatlik darajasi bilan belgilanadi).

Suyak massasi zichligi indeksi – 2,8 kg tashkil etdi. Me'yor bo'yicha yuqori darajada hisoblanadi.

Organizmning ichki yog‘i ham 1 kg tashkil etdi. Bu ham past darajada. **Tavsiyamiz**

Xulosa. Ushbu sportchimizni tana tarkibi me’yorida deb baholandi.

§1.16. Kompleks ishchi guruhning basketbolchilarining maxsus tezlik va kuch sifatlarini takomillashtirish usullari bo‘yicha ilmiy asoslangan kompleks ilmiy-tadqiqotlarni tashkil etish bo‘yicha berilgan amaliy taklif va tavsiyalar

Zamonaviy ilmiy-metodik adabiyotlarning nazariy tahlili va o‘zimizning tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatdiki, basketbol o‘yinlaridagi yuklama intensivligining ortib borishi sportchilarning tezligi va kuch tayyorgarligiga jiddiy talablar qo‘yadi, bu ayniqsa, aniq uloqtirishdan charchash fonida butun jamoaning sa’y-harakatlari o‘yin yakunida yuqori natijalarga erishishda sarhisob qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Yosh basketbolchilarning sport va texnik tayyorgarligining bu jihatlari bir butunlikni tashkil etadi, o‘zaro bog‘liq bo‘lib, musobaqa faoliyati uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Basketbolchilarning tezlik va kuch sifatlarini rivojlantirish uchun quyidagilar e’tiborga olinishi kerak:

1. Sportchi ushbu musobaqalarga yaxshi tayyorgarlik ko‘rishi kerak, ya’ni oldindan ma’lum miqdordagi sakrash mashqlari va shtanga bilan mashqlarni bajarish va chuqur sakrashning to‘g‘ri texnikasini o‘zlashtirish tavsiya etiladi.

2. “Sakrash” sifatini rivojlantirishga qaratilgan alohida mashg‘ulotlar bir mashg‘ulot davomida boshqa mashqlar bilan (texnik elementlarga taqlid qilish, tana va yelka kamari mushaklari uchun mashqlar va boshqalar) birlashtirilishi mumkin, biroq ular mashg‘ulotning asosiy qismini tashkil etishi lozim. Hech qanday holatda bu ishni boshqa biron bir ishga "qo‘shimcha" sifatida qaramaslik tavsiya etiladi.

3. O‘quv-mashq guruhlari yosh basketbolchilarini tezlik-kuch tayyorlash texnikasidan foydalanish jarayonida jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasini hisobga olish uchun doimiy ravishda tavsiya etilgan nazorat mashqlari yordamida umumiy jismoniy tayyorgarlik va maxsus jismoniy tayyorgarlik xususiyatlari miqdor va sifat ko‘rsatkichlarini hisobga olish tavsiya etiladi.

4. Tezlik-kuch mashqlari yo‘nalishi bo‘yicha individual tanlovga umumiy jismoniy tayyorgarlikning poydevori qo‘yilgandan keyingina o‘tish mumkin, bu esa tezlikni kuchaytirish dasturlarining har qanday versiyasini bajarishdan oldin zarurdir. Bu esa yosh basketbolchilarning asosiy mushak tizimlarining moslashuvida buzilishlarga yo‘l qo‘ymasliklari, eng muhimi, ularda mavjud bo‘lgan texnik-taktik salohiyatni yo‘qotmasliklari kafolati bo‘ladi.

5. Basketbolda optimal sport natijasiga erishish, birinchi navbatda, mashg‘ulotlarning u yoki bu shaklidagi orqada qolgan tomonlarga kuchli ta’sirga bog‘liq bo‘lib, bu har bir sportchining raqobat faoliyati jarayonida yashirin zaxiralarini ro‘yobga chiqarishga imkon beradi. O‘quv-mashg‘ulot guruhlarining yosh basketbolchilari o‘rtasida yashirin zaxiralar qatorida, o‘rganish natijalarining ko‘rsatkichlari sifatida individual tezlik-kuch qobiliyatini oshirish kiradi. O‘yin faoliyati jarayonida yosh basketbolchilar tomonidan individual tezlikni kuchaytirish dasturini amalga oshirish samaradorligining pasayishi mashg‘ulot jarayonida maxsus kuch mashqlarini tanlash tavsiya etiladi.



6. Dastlabki pedagogik tajriba davomida aniqlangan mashg‘ulotlar tizimidagi uslubiy kamchiliklar ixtisoslashtirilgan hajm va intensivlikning turli kombinatsiyasi asosida o‘quv guruhlarida yosh basketbolchilarning tezlik va kuch tayyorgarligini oshirishga qaratilgan eksperimental metodikani ishlab chiqish tavsiya etiladi.

7. O‘tkazilgan tadqiqotlar asosida umumiy jismoniy tayyorgarlikning individual ko‘rsatkichlari va tezlik-kuch sifatlari ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlandi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, o‘quv-mashq guruhlari yosh basketbolchilarining tezlik-kuch tayyorgarligi va jismoniy tayyorgarligini individual nazorat mashqlari ko‘rsatkichlari o‘rtasida yuqori korrelyatsiya aniqlangan. Yosh basketbolchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligi uchun tezlik-kuch ko‘rsatkichlarining korrelyatsion tahlili va

nazorat mashqlari yosh basketbolchilarning tayyorgarlik darajasini tavsiflovchi eng ma'lumotli testlarni aniqlash tavsiya etiladi.

8. O'tkazilgan pedagogik tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, asosiy o'quv dasturini o'quv jarayoni samaradorligini oshirishga yordam beradigan va yosh basketbolchilarning o'quv-mashq guruhlarida kuch va tezlik-kuch tayyorgarligi darajasini oshirishning eng samarali vositasi bo'lgan maxsus jismoniy mashqlar bilan to'ldirish kerak. Asosiy o'quv dasturini maxsus jismoniy mashqlarni qo'shimcha qo'llash bilan uyg'unlashtirish o'quv-mashq guruhlarining yosh basketbolchilar o'rtasida mashg'ulot jarayoni samaradorligini oshirishga yordam beradi va ularning o'yinga tayyorgarlik darajasini oshirishning samarali vositasi hisoblanadi.

§1.17. Kompleks ishchi guruhning futbolchilarning harakat faolligini nazorat qilish asosida ularning maxsus chidamliligini takomillashtirish uslubiyati va yosh futbolchilarning asimmetrik harakat faoliyatlar bo'yicha ilmiy asoslangan kompleks ilmiy-tadqiqotlarni tashkil etish bo'yicha berilgan amaliy taklif va tavsiyalar

Futbolchilarda maxsus chidamlilik darajasini o'rganish, uning rivojlanishi va takomillashishga katta ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash muammosi hozirgi bosqichda dolzarb hisoblanadi va uning hal etilishi amaliy zarurat yuzasidan paydo bo'lgan. Ilmiy-uslubiy adabiyotlarning tahlil qilish natijasida aksariyat tadqiqotchilar tomonidan maxsus chidamlilikning rivojlanish darajasi va musobaqa faoliyati samaradorligi orasida yaqindan bog'liqlik borligi ma'lum bo'ldi. Ko'plab olimlar o'z tadqiqotlarida maxsus chidamlilik darajasini rivojlanishi va tayyorgarlik ko'rsatkichlari yetarli emasligini ta'kidlash bilan birga ularning bazaviy imkoniyatlarini shakllantirishining yangi tizimlarini ishlab chiqish zaruriyat borligi aniqlandi. Futbolchilar o'tkazilgan kuzatuvlar, so'rovnoma natijalari joriy tadqiqot va pedagogik tajriba asosida futbol mashg'ulotlarini olib borish jarayonida quyidagi amaliy tavsiyalarni taklif qilinadi:

1. Futbolchilarning yillik siklidagi mashg'ulot jarayonida avval kuch, tezlik- kuch qobiliyatlari darajasini oshirishga urg'u berish, keyin esa futbolchilarning maxsus chidamlilik darajasini oshirish tavsiya etiladi.

2. Oldinga qo‘yilgan vazifani hal etish uchun mashg‘ulot jarayonida futbolchilarning maxsus jismoniy va funksional imkoniyatlarini oshirish masalalari hal etadigan yuklamalarni rejalashtirish;

3. Har bir mashqni kuchli lokal toliqishgacha bajarish lozim, harakatlanishlarini 12-20 atrofida. Mashqni ketma-ket 20-60 s.dam olish tanaffuslari bilan aylana bo‘ylab bajarish tavsiya etiladi.

4. Yillik tayyorgarlik siklida maxsus chidamlilik darajasini takomillashtirishga qaratilgan mashg‘ulot yuklamalari kattaliklarining tahlili qilish va takomillashtirish dasturlarining optimal variantlari ishlab chiqish;



5. 18-19 yoshli futbolchilarning ham o‘yin vaqtidagi, ham mashg‘ulotlar davomidagi 5 ta tezlik zonasi va 5 ta shiddat zonasida faol harakatlanishlari, maxsus chidamlilik darajasini baholash va nazorat qilish tavsiya etiladi.

6. Futbolchilarning maxsus chidamliligini rivojlantirish va takomillashtirish metodikasi boshlang‘ich bosqichda 1,5-2 oy mobaynida kuchga yo‘naltirilgan yuklamalarni va keyingi bosqichda oksidlovchi mushak tolalarining shakllanishiga yordam beruvchi aerob-anaerob yo‘nalishidagi yuklamalarni bajarish tavsiya etiladi.



7. Tavsiya etilayotgan metodika yosh futbolchilarning o‘quv-mashg‘ulot xronometraj (pedagogik kuzatuv) asosida o‘quv-mashg‘ulotda olib boriladigan mashqlarning bajarish shiddati, boshlang‘ich tayyorlov guruhidagi yosh futbolchilar musobaqa sharoitidagi vazifalarga mos kelishi lozim. Shu sababdan biz o‘quv-mashg‘ulotdagi mashqlar qulay va noqulay oyoqda bajarishda 3 ta ishlash shiddat chegaralarida 80-120 zarba/daqiqa; 121-150 zarba/daqiqa; 151

zarba/daqiqadan yuqori shiddat chegaralari o‘yin vaziyatga xos bo‘lgan vositalarni olib borilishi aniqlangan bo‘lsa, noqulay oyoqda olib boriladigan mashqlarni 120 zarba/daqiqadan yuqori shiddatda olib borish tavsiya etiladi.

8. O‘quv mashg‘ulotlarni texnik harakatlarga o‘rgatishda qulay oyoqda bajarilgan texnik harakatlar asosiy qismida o‘rgatish jarayonida 20% kichik yuklamali shiddatni tashkil etish asosida, o‘rta yuklamali shiddatda 50% asosida, yuqori shiddatdagi mashqlarni bajarishda texnik harakatlarni 30% ga olib chiqish kerak. Noqulay oyoqdagi texnik harakatlarni o‘rgatishda kichik yuklamali shiddatda 25% kichik yuklamali shiddatga, 40% o‘rta shiddatli yuklama va 35% yuqori shiddatli mashqlarni bajarish tavsiya etiladi.

9. O‘quv-mashg‘ulotlarida bajariladigan noqulay oyoqdagi mashqlar shiddati futbolchilarga o‘yinda texnik usullar aniqligini yaxshilash imkonini bermaydi. Agar yosh futbolchi o‘yin usullarini noqulay oyoqda kichik shiddat chegarasini ko‘zda tutadigan shart-sharoitlarda takomillashtirsa, yuqori chegarasida o‘ynashga to‘g‘ri kelganda noqulay oyoqda texnik usullarni bajarish ko‘zlangan maqsadga erisha olmaydi. Bu shart-sharoitlar texnik usullarning aniqligi va ularni bajarish tezkorligini takomillashtirish imkoniyatlari o‘quv-mashg‘uloti bilan (o‘quv mashqlarini bajarish bilan) belgilanadi.

10. Turli yoshdagi futbolchilarning birinchi va ikkinchi taymlardagi harakatlarida ham o‘zgarishlar soni va samaradorligida sezilarli farq bor ekanligi ko‘rmoqdamiz. Bunda barcha yoshdagi futbolchilarining birinchi taymda qulay va noqulay oyoqdagi bajarilgan texnik harakatlar soniga qaraganda ikkinchi taymdagi texnik harakatlar soni yuqoriligini, samaradorlik ko‘rsatkichi esa, noqulay oyoqda noaniq harakatlari yuqoriligini oquv mashg‘ulot jarayonida inobatga olgan holda tashkil etish kerak. Ayniqsa mashg‘ulot boshida qulay oyoqda bajarishga va mashg‘ulot oxirida ko‘proq noqulay oyoqda bajariladigan texnik harakatlarga e’tibor berish kerak.

11. Turli masofalarga (qisqa, o‘rta, uzoq) amalga oshirilgan uzatmalarda qulay oyoqda barcha yo‘nalishlarda ikkinchi taymda soni va samaradorlik ko‘rsatkichi yuqoriligini aniqladik. Ammo, noqulay oyoqda amalga oshirilgan texnik harakatlarda o‘zgarishlari salbiy tomonga o‘zgarganligi

ko‘rinishi, ularning to‘plarni sherigiga uzatishdan ko‘ra noaniq tomonga tepib yuborishlari yuqorini mashg‘ulot jarayonida inobatga olish lozim.

12. To‘pni qabul qilish va uzatishda harakatlarida ham o‘quv mashg‘ulotlarda e’tibor berish kerak, qulay oyoqda to‘xtatish va qulay oyoqda uzatish, noqulay oyoqda to‘xtatish va qulay oyoqda uzatish, qulay oyoqda to‘xtatish va noqulay oyoqda uzatish, noqulay oyoqda to‘xtatish va noqulay oyoqda uzatish, noqulay oyoqda bittada uzatish, qulay oyoqda bittada uzatish harakatlarga oid vositalarni alohida to‘xtalish kerak. Ayniqsa, noqulay oyoqlarda bajariladigan harakatlarni taalluqli bo‘lgan holatlarga alohida to‘xtalish, o‘rgatish jarayoniga joriy etish tavsiya etiladi.

13. Yosh futbolchilarning musobaqa o‘yinlarining turli vaziyatlarida to‘p bilan qulay va noqulay harakatlarni bajarish texnikasi turli omillarga bog‘liq – texnik usullar amalga oshirish joyi, yosh futbolchilarni dastlabki holati, texnik usullarni qulay va noqulay oyoqda yo‘naltirish, kuchli va kuchsiz raqib qarshiligi va texnik usullarni bajarish tezkorligiga qo‘yiladigan talablar belgilashi to‘g‘risidagi tavsiyalar hisobga olinishi zarur.

14. Ma’lumotlar tahlilining ko‘rsatishicha, noan’anaviy mashg‘ulotlarni bajargan futbolchilarda maxsus chidamlilik, jismoniy va funksional tayyorgarlik darajasida hamda musobaqa faoliyati ko‘rsatkichlarida statistik ishonchli farqlar aniqlandi. Bu dalillar futbolchilarning maxsus chidamlilik darajasini oshirish uchun ishlab chiqilgan “Dasturlar” va olib borilgan tadqiqotning samarali ekanligidan dalolat beradi.

§1.18. Kompleks ishchi malakali gandbolchilarning hujum texnik harakatlarini takomillashtirish samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan kompleks ilmiy-tadqiqotlarni tashkil etish bo‘yicha berilgan amaliy taklif va tavsiyalar

Ushbu sport turi doirasida to‘plangan bibliografik manbalar, ilmiy-metodik ma’lumotlar, pedagogik kuzatuv, so‘rovnoma, joriy tadqiqotlar va pedagogik tajriba natijalarining qiyosiy tahliliga asoslangan holda quyidagi amaliy tavsiyalarni berish mumkin:

1. O‘zbekiston chempionatiga jamoalar tayyorgarligini dasturlashda nazorat o‘yinlarni o‘tkazish bilan model tavsif ko‘rsatkichlariga mo‘ljal olish zurur. Agar biron-bir parametr mos kelmasa, demak ortda qolishni yo‘qotishga yo‘naltirilgan vositalarni kuchaytirish tavsiya etiladi.

2. Tavsiya etilgan mashqlar majmuasi malakali gandbolchilarning tayyorgarlik davrida tezkor qarshi hujumlarini takomillashtirish uchun ularni tashkil etish ko'nikmalarini takomillashtirishga yordam beruvchi amaliy mashqlar bo'lib, bular uzoq va o'rta masofalarga to'pni uzatish, o'yinchilarning bir-biriga nisbatan turli xil harakatlari, o'yinchilar o'yin sharoitlarida to'pni ilib olish va uzatishni modellashtirishlari va tezkorlik sifatlarini takomillashtirishlari uchun maksimal tezlikda harakatlanishlarni o'z ichiga oladi.

3. Yugurib harakatlanayotganda bir nechta to'p uzatishlarni bajarish kabi mashqlarni iloji boricha gandbol maydonida yoki biron-bir katta maydonlarda o'tkazish zarur. To'pni olib qo'yish sharti bilan harakatli va amaliy o'yinlardan keng foydalanish lozim. To'pni olib qo'ygandan so'ng o'yinchi murabbiy tomonidan belgilangan yo'nalishga tez yugurishlarni bajarishi tavsiya etiladi.



4. Zal sharoitlarida umum qabul qilingan "darvozabon yoki sherikdan to'pni ilib olish bilan individual tez yorib o'tishga yugurish" mashqlaridan tashqari hujumdan himoyaga va himoyadan hujumga o'tish mashqlarini qo'llash maqsadga muvofiq. Ushbu mashqlar yordamida xalal berish sharoitlarida to'pni uzatish, to'pni tortib olish, mo'ljal olish mahorati oshirish tavsiya etiladi.

5. Tezkor qarshi hujumlarni tashkil etishning taktik tomonlarini ham yoddan chiqarmaslik lozim. Texnik-taktik yo'nalishdagi mashg'ulotlarda maydon o'yinchilari va darvozabonning o'zaro harakatlarini ham qayta ishlab chiqish tavsiya etiladi.

6. Gandbolchilarning hujum texnik-taktik harakatlarini baholash uchun ishlab chiqilgan "Handball game efficiency" nomli kompyuter dasturidan foydalanish murabbiylar uchun tavsiya etiladi. Dasturning vazifasi, o'yin vaqtida gandbolchilarning texnik-taktik harakatlari samaradorligini aniqlashdan iborat. Dastur 15 ta texnik-taktik harakatlarni, 4 ta jazolash turlarini o'z ichiga oladi: to'pni ilish; to'pni uzatish; darvozaga



to‘p otish; 7 metrli jarima ishlash; 7 metrli jarimani otish; himoyachini aldab o‘tish; tez yorib o‘tish; golli to‘p uzatma; darvozaga hujum; hujumda qoida buzish; hujumchini to‘xtatish; uzatilgan to‘pni olib qo‘yish; darvozaga otilgan to‘pga to‘siq qo‘yish; qaytgan to‘pni ushlab olish; 7 metrli jarimaga sababchi bo‘lish; 2 daqiqali chetlashtirish; sariq karta; qizil karta; ko‘k karta. Ushbu dastur zamonaviy malakali gandbolchilarni musobaqa faoliyatiga tayyorlashda yuqori darajasida model tavsiflarini aniqlash tavsiya etiladi.

7. Ilg‘or tajriba va ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili natijalariga ko‘ra malakali gandbolchilarning musobaqa davrida tezkor qarshi hujum harakatlari samaradorligini oshirish bo‘yicha zamonaviy vosita va o‘rgatish usullarini takomillashtirish yuzasida yetarlicha ilmiy tadqiqot ishlari o‘tkazilmaganligi, shu bilan birgalikda aynan tezkor qarshi hujumlarni qismlarga bo‘lib pedagogik nazorat qilish tavsiya etiladi.

8. Malakali gandbolchilarning tezkor qarshi hujumlarini takomillashtirish masalalari bo‘yicha tanlab olingan maqsadli auditoriya, aynan murabbiylar tarkibi orasida o‘takzilgan so‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatadiki, 50% respondentlar “tezkor qarshi hujumdan foydalanish” ahamiyatli, yana 50% respondentlar esa ahamiyati o‘rta deya qayd etdilar. Bunday natijalardan shunday xulosa qilish mumkin-ki aksariyat murabbiylar tezkor qarshi hujumdan foydalanishni afzal deb bilishmaydi. Murabbiylar bilan o‘tkazilgan anketa so‘rovnoma natijalaridan yana bir e’tiborli jihati, ular bitta mashg‘ulot jarayonida tezkor qarshi hujumlarni takomillashtirishga atiga 10-12 daqiqa ajratish tavsiya etiladi.

9. Pedagogik tajriba shuni ko‘rsatadiki, malakali gandbolchilarning individual tezkor qarshi hujumlarni tashkil etishida asosiy omillar qatorida tezlik, kuch, chidamlilik sifatlarini takomillashtirish vositalaridan foydalangan holda ishlab chiqilgan mashqlar majmuasi, malakali gandbolchilar o‘quv-mashg‘ulot jarayonini tuzish uslubiyati, o‘quv-mashg‘ulot darslarini o‘tkazilishining an’anaviy tizimidan ahamiyatli darajada ustundir. Ushbu

uslubiyat tajriba guruhida shug‘ullanuvchi malakali gandbolchilarning umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasini nazorat guruhida shug‘ullanuvchi malakali gandbolchilarning umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasiga nisbatan ma’lum miqdorda oshirish tavsiya etiladi.

10. Darvozabonning natijaviy o‘yini va himoyada bajarilgan texnik-taktik harakat ko‘rsatkichlari jamoaning musobaqa faoliyatidagi tezkor qarshi hujumlarni tashkil etishda muvaffaqiyatli omillari hisoblanadi. Bu avvalo, to‘pni ushlab olish, to‘sish va to‘p darvozabon va ustunlardan qaytgandan keyin uni ilib olish, to‘pni uzatishda iloji boricha juda kam to‘p yo‘qotishlarni o‘z ichiga oladi. Tabiiyki, bevosita musobaqalarda tezkor qarshi hujumlarni tashkil etish bilan bog‘liq vaziyatlarni yaratish uchun o‘yinchilar himoyaning faol va jips shakllariga ega bo‘lishlari, texnik tayyorgarligi yuqori bo‘lishi kerakligi tavsiya etiladi.

11. Tadqiqot davomida malakali gandbolchilarning jismoniy tayyorgarligi bo‘yicha test sinovlari o‘tkazildi. Tajriba boshida nazorat va tajriba guruhi gandbolchilarining jismoniy tayyorgarligi ishonchsiz farqlanish bilan, deyarli bir xil natija ko‘rsatdi. Demak yuqoridagi fikrlarga asoslanib, nazorat va tajriba guruhlariga malakali gandbolchilarini saralab olishga uslubiy jihatdan to‘g‘ri yondashilgan deb xulosa qilish mumkin. Tajriba oxirida nazorat va tajriba guruhlariga mansub malakali gandbolchilarining jismoniy tayyorgarligi aniqlaganda shu narsa ma’lum bo‘ldi-ki nazorat guruhiga nisbatan tajriba guruhining natijalarida sezilarli darajada o‘sish kuzatildi bu esa o‘z navbatida tajriba guruhining mashg‘ulot dasturiga kiritilgan tajriba mashqlarini qo‘llash tavsiya etiladi.

12. Musobaqa faoliyatida yuqori malakali gandbolchilarga nisbatan malakali gandbolchilar ko‘proq harakat faoliyatlarini bajaradilar. Biroq, ularda hujumlarning uchdan bir qismi tezkor qarshi hujumlarni, ayniqsa guruhli tez yorib o‘tishdan hujumlarni tashkil etishga to‘g‘ri keladi, ammo ularni muvaffaqiyatli yakunlashgacha olib borishni doim ham uddasidan chiqa olmaydilar. Shuning uchun malakali gandbolchilar o‘quv-mashg‘ulot jarayonida bunday hujum turini takomillashtirish uchun hududiy hujumga nisbatan tezkor qarshi hujumlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashqlar tarkibini ko‘paytirish evaziga tezkor qarshi hujum samaradorligini oshishiga erishildi.

§1.19. Kompleks ishchi guruhning regbichilarning boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida harakat tezkorligini rivojlantirish bo‘yicha berilgan amaliy taklif va tavsiyalar

Maxsus ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili va o‘zimizning tadqiqotimiz natijalari shuni ko‘rsatdiki, sport maktablarining o‘quvchilarining jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini tashkil etish va mazmunida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan sog‘lomlashtirish va rivojlanishga ta’sirini yaxshilash uchun foydalanilmayotgan zaxiralar mavjud va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining motorika faoliyatida yoshga bog‘liq qiziqish va ehtiyojlarni hisobga olish shaxsning uyg‘un kompleks rivojlanishini ta’minlaydi. Regbichilarning boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida harakat tezkorligini rivojlantirishni takomillashtirish bo‘yicha tahlab chiqilgan quyidagi mezonlarni o‘quv-mashg‘ulot jarayoniga tatbiq qilish tavsiya etiladi:



1. Sport maktabi regbichi o‘quvchilarining boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida mashg‘ulotlar turi, mashg‘ulotlar davomiyligi, yuklamalar hajmidan kelib chiqqan holda harakat tezkorligini rivojlantirish tavsiya qilinadi.

2. Sport maktablarida boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichi regbichi o‘quvchilarining harakat tezkorligini rivojlantirishda “Harakat tezkorligini rivojlantirish mashqlari modeli”ni o‘quvchilarning individual, psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib qo‘llash tavsiya qilinadi.

3. Yosh regbichi o‘quvchilarning harakat tezkorligini rivojlantirish bo‘yicha “Harakat tezkorligini rivojlantirish mashqlari modeli”ni SM to‘garak rejasiga kiritish va shu asosda mashg‘ulotlarni tashkil qilish tavsiya qilinadi.

4. SM o‘quvchilarining harakat tezkorligini oshirishda regbi sport turining o‘ziga xos o‘rnidan kelib chiqqan holda hamda regbi bo‘yicha sport

tashkilotlari takliflarini inobatga olib mamlakatimizda regbi sport turini yanada rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish tavsiya qilinadi.



5. Regbi elementlaridan foydalangan holda maktab o‘quvchilarining jismoniy madaniyatini shakllantirishning pedagogik texnologiyasi ishlab chiqilgan bo‘lib, u sport mashg‘ulotlari vositalari va usullarini va ta’limni rivojlantirish tamoyillarini integratsiyalashuvi muhim ta’lim samarasini va shaxsning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini yaxshilashni ta’minlaydigan o‘ziga xos shaxsga yo‘naltirilgan tarkib asosida tuzish tavsiya qilinadi.

6. Ishlab chiqilgan texnologiyani amalga oshirishning asosiy tashkiliy-uslubiy shartlari quyidagilardan iborat: regbining texnik va taktik harakatlarini o‘rgatish jarayonida raqobat-o‘yin usulidan ustunlik qilish; sinfda raqobat sharoitlarini modellashtirish; jismoniy tayyorgarlikni amalga oshirish asosan texnik va taktika bilan bog‘liq; nazariy materialni izchil o‘rganish (o‘yin kodi, terminologiya, qoidalar, regbi bo‘yicha mutaxassislarning tajribasi); dolzarb muammolarni hal qilishda ijodiy fikrlashni shakllantirish, guruhlarda o‘zaro munosabatlarning amaliy ko‘nikmalarini egallash, o‘yin harakatlari va vazifalarni tashkil etish tajribasi, vazifalarni belgilash, hakamlik qilish, harakatlar va usullarning to‘g‘ri bajarilishini o‘z-o‘zini va o‘zaro baholash, shaxsiy va guruh natijalari barcha mezonlarni o‘zida mujassam ettirish tavsiya qilinadi.

7. Pedagogik tajriba yakunida tajriba guruhi o‘quvchilari tomonidan ko‘rsatilgan texnik tayyorgarlikning yetarli darajada yuqori darajasi (bolalar 80% dan ortig‘i shakllangan malakalar darajasida regbining 10-12 yoshli bolalar uchun, shuningdek, o‘quvchilarning o‘yin ko‘nikmalarini egallashga bo‘lgan yuqori qiziqishi texnik harakatlarini o‘zlashtirgan) regbi sportining qulayligidan dalolat beradi.

§1.20. Kompleks ishchi guruhning voleybolchilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan kompleks ilmiy-tadqiqotlarni tashkil etish bo‘yicha berilgan amaliy taklif va tavsiyalar

Voleybol yo‘nalishi bo‘yicha to‘plangan manbalarni o‘rganish, olib borilgan kuzatuv, o‘tkazilgan so‘rovnoma, joriy tadqiqotlar va pedagogik tajriba natijalarining qiyosiy tahliliga asosan quyidagicha amaliy tavsiyalarni taklif etish imkonini berdi.

1. 10-13 yoshli voleybolchilarni jismoniy tayyorgarlik dasturlarini optimallashtirish hamda yoshga oid tabaqalash maqsadida turli yosh va turli o‘yin ampulasidagi yosh voleybolchilarni jismoniy tayyorgarlik darajasi va tuzilmaviy xususiyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlardan foydalanish tavsiya qilinadi.



2. Jismoniy va funksional tayyorgarlik me’yorlarini ishlab chiqishda turli yosh va turli o‘yin ampulasidagi yosh voleybolchilarni jismoniy tayyorgarlik darajasi va tuzilmaviy xususiyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlardan foydalanish lozim.

3. Yosh voleybolchilar jismoniy tayyorgarlik jarayonlarida nafas hajmini, nafas mushaklari kuchini ko‘paytirish va gipoksiya barqarorligini oshirishga yo‘naltirilgan maxsus nafas mashqlaridan foydalanish tavsiya qilinadi.

4. Yosh voleybolchilar jismoniy tayyorgarlik jarayonini tashkil etishda, alohida jismoniy sifatlarni sensitiv rivojlanish davrlarini hisobga olish va ma’lum o‘yin ampluasiga tegishli jismoniy sifatlarni ustuvor rivojlantirishda o‘yin ixtisosligiga muvofiq shug‘ullantiruvchi vositalarni tabaqalash tavsiya qilinadi.

5. Yosh voleybolchilarda jismoniy tayyorgarlik, jismoniy rivojlanish, ishchanlik qobiliyatlarining asosiy ko‘rsatkichlari va yosh kattalashishi bilan organizmni vegetativ ko‘rsatkichlari jadal oshishi kuzatilishi aniqlandi. Shu bilan birga, ayrim jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari

bo‘yicha yosh voleybolchilar barcha ko‘rib chiqilayotgan yosh guruhlarida 10 yoshdan 13 yoshgacha bo‘lgan davrda yosh voleybolchining jismoniy tayyorgarlik tuzilmaviy xususiyati uning asosiy ko‘rsatkichlarining uzviy o‘zaro bog‘liqligi va soni bo‘yicha farqlanadi. Yosh kattalashgan sari bunday o‘zaro bog‘liqliklarning soni va uzviyligi dastlab sezilarli kamayadi (12-13 yoshda), so‘ng esa biroz ortadi. Shuning uchun, 10-11 yoshli voleybolchilar jismoniy tayyorgarlik, jismoniy ishchanlik qobiliyatlarining ko‘pgina ko‘rsatkichlari va vegetativ funksiyalar ko‘rsatkichlari bo‘yicha keng qamrovli va uzviy bog‘lanishlar bilan farqlanishiga e’tibor berish borish tavsiya etiladi.



6. Turli o‘yin ampluasiga ega bo‘lgan 10-13 yoshli voleybolchilar jismoniy tayyorgarlikning asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha farqlanadilar. “Hujumchi” voleybolchilar boshqa ampluadagi sportchilardan ancha yuqori jismoniy rivojlanish darajasi bilan farqlanadilar, ahamiyatli darajada yaxshi tezkor-kuch ko‘rsatkichlariga ega, kuch va tezkor chidamkorlik ko‘rsatkichlari nisbatan yaxshi. “Himoyachilar” ancha yuqori rivojlangan egiluvchanlik darajasiga ega, kuch, tezkor-kuch imkoniyatlari va tezkorlik ko‘rsatkichlari nisbatan yuqori. “Libero” ampulasidagi voleybolchilar boshqa ampluadagi sportchilardan farqli o‘laroq koordinatsion qobiliyatlarni aks ettiruvchi ishonchli ko‘rsatkichlarga ega va tezkorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha barcha ampluadagilar bilan teng darajada. Shuning uchun, turli o‘yin ampulasidagi yosh voleybolchilar organizmining funksional holati ham farqlanadi: “hujumchilarda” nisbatan yaxshi ko‘rsatkichlar kuzatildi, bu esa ehtimol jismoniy ishchanlik va aerob unumdorlik darajasi bo‘yicha ularning ustunligini asoslaydi.

7. Alohida jismoniy sifatlarni yoshga oid sensitiv rivojlanish davri, nafas mashqlari kabi ergogenik vositalarni maqsadga yo‘naltirilgan qo‘llanilishida o‘yin ampluasiga asoslangan ma’lum ish turiga moyillik kabi omillarni hisobga olish bilan yosh voleybolchilarni jismoniy tayyorgarligini qurish jismoniy va funksional tayyorgarlikni rivojlantirish jarayonlarini

optimallashtirishga va moslashuvchan boshqarishni ta'minlaydi hamda ularning darajasini oshirishga yordam beradi.

8. Malakali voleybolchilar tayyorlash jarayonida sakrovchanlik va sakrash chidamkorligini maqsadli rivojlantirishga mo'ljallangan quyidagi mashqlar blokini amaliyotga tadbiq etish tavsiya etiladi:

1. Joyda turib, oyoqlarni an'anaviy bukish burchagi asosida 10 marta vertikal sakrash – 2 seriya.

2. Joyda turib, oyoqlarni 45o bukib, 10 marta vertikal sakrash – 2 seriya.

3. Joyda turib, oyoqlarni 90° bukib, 10 marta vertikal sakrash – 2 seriya.

4. Joyda turib, oyoqlarni 135o bukib, 10 marta vertikal sakrash – 2 seriya.

5. Joyda turib, oyoqlarni to'liq bukib, 10 marta vertikal sakrash – 2 seriya.

6. 1-5 mashqlar qum ustida bajariladi.

7. Joydan 10 marta vertikal sakrash, 11-sakrashda havoda 90° o'ngga burilib, 10 marta, 31-sakrashda 90° o'ngga burilib, 10 marta sakrash – 1 seriya.

8. 7-mashq havoda 90 chapga burilib bajariladi.

9. 7-8 mashqlar qum ustida bajariladi.

10. 1-5 mashqlar ikki qo'l tanaga bog'langan holatda bajariladi.

11. 6-9 mashqlar ikki qo'l tanaga bog'langan holatda bajariladi.

12. 5 kg. li to'ldirma to'p bilan 30 sek. davomida maksimal marta o'tirib-turish – 2 seriya.

13. Chap oyoqda 20 sek. ichida maksimal marta o'tirib-turish – 2 seriya.

14. O'ng oyoqda 20 sek. ichida maksimal marta o'tirib-turish – 2 seriya.

Izoh: Mashqlar seriyalari oralig'ida quyidagi relaksasion – nafas mashqlari bajariladi:

- chuqur nafas olib, keskin nafas chiqarish – 9-10 marta;

- chalqancha yotgan holatda oyoqlarni ko'tarib silkitish, "velosiped haydash", to'g'ri va ko'ndalang yo'nalishlarda "qaychi" mashqlari – 15 sek. dan 2 seriya.

Sakrovchanlik qobiliyatlari (joydan va yugurib kelib sakrash balandligi, sakrash chidamkorligi)ning rivojlanish sur'atini baholashda an'anaviy testlar bilan bir qatorda obyektiv va ishonchli axborot beruvchi hamda uni xotirada saqlab qoluvchi kompyuterlashtirilgan o'lchov uskunasidan foydalanish tavsiya etiladi.

9. Voleybol bo'yicha klub va terma jamoalarda shug'ullanuvchi yuqori malakali voleybolchilar, shu jumladan tadqiqotlarimizga jalb qilingan malakali voleybolchi talabalar bilan olib borilayotgan an'anaviy mashg'ulotlarni ko'plab kuzatish natijasida ma'lum bo'ldiki, joydan va yugurib kelib vertikal sakrash balandligi (sakrovchanlik) hamda sakrash chidamkorligini rivojlantirish maqsadida qo'llanilayotgan mashqlar har doim ham talabga javob bermas ekan. Jumladan, mashqlarni tanlash va qo'llashda ularning hajmi, shiddati, sakrab ijro etiladigan o'yin usullariga mosligi, ayniqsa sakrashda oyoqlarni bukish burchagi, ikki qo'l va gavda-boshni sinxron tartibda siltab yuqoriga ko'tarish (inersion kuchni yuzaga keltirish uchun), sakrash texnikasiga e'tibor berilmasligi aniqlandi. Ehtimol qilish mumkinki, aynan ana shu muammolar, ya'ni sakrovchanlik va sakrash chidamkorligi sust rivojlanganligi tufayli ular xalqaro standart bo'yicha belgilangan me'yoriy talablardan yiroqdir. Mazkur sport turini kengroq o'rganish keyingi tadqiqotlarimizning predmeti bo'lishiga real imkoniyatdir.

§1.21. PQ-414-son qarorining 8-ilovasi 211-bandi ijrosi bajarilganligi to'g'risida ma'lumot



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-noyabrdagi PQ-414-sonli qarorining 8-ilovasi 211-bandida Jismoniy tarbiya va sport sohasida ilmiy izlanishlar qo'llanilishini 2 barobarga oshirish belgilab qo'yilgan. Mazkur topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar institutining bir qator yetakchi mutaxassislari qarorning ijrosini ta'minlash hamda sport turlari bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoa a'zolarining va yuqori malakali

sportchilarni o‘quv mashg‘ulot yig‘inlarini o‘tkazish davrida kompleks ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish va innovatsion texnologiyalarni keng qo‘llash amalga oshirilib kelinmoqda.

Shu munosabat bilan joriy yilning 2 noyabr kuni O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining futbol ixtisosligida tahsil olayotgan talaba-sportchilarni funksional holati o‘rganildi. Laboratoriya tahlili natijalari talaba-sportchilarni funksional holatini to‘g‘ri baholashga imkon berib, sportchi tayyorgarligining kuchli va kuchsiz tomonlari to‘g‘risidagi to‘liq va aniq ma’lumotlar olish imkonini beradi.



O‘zDJTSU yengil atletika SPMO mashg‘ulotlarida Polar H 10 qurilmasi yordamida talaba – sportchilarni funksional tayyorgarligi o‘rganildi. O‘rganish jarayonida ularning mashg‘ulot davomida sarflangan kkal va yog‘ miqdori, YUQS, mashg‘ulot tempi nazorat qilindi. Laboratoriya xodimlari mashg‘ulot yuklamalarini rejalashtirish va dam olish oraliq me’yorlarini to‘g‘ri taqsimlash yuzasidan o‘zlarining taklif va tavsiyalarini berib o‘tdi.

Shu qatorda Chirchiq shahar yunon-rum kurashi bilan shug‘ullanuvchi sportchilarning mashg‘ulot jarayoni kuzatuvga olindi. Mashg‘ulot davomida sportchilar organizmini Polar h 10 yurak qisqarish sonini o‘lchash orqali yuklamani me’yorlash va tiklanish vaqtini nazorat qilish tahlil qilindi.



Ilmiy tadqiqot instituti nafaqat sportchilarni balki O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi kursantlarni Toshkent harbiy okrugi “Chirchiq” dala-o‘quv maydonida Jismoniy tayyorgarlik mashg‘ulot jarayonini tahlil qilishdi. Mashg‘ulot davomida kursantlarga berilayotgan yuklamalarni organizmiga ta’siri va mashqlar ketma-ketligini to‘g‘ri

rejalashtirish bo‘yicha fikrlar o‘zaro almashilindi. Tadqiqot so‘ngida kursantlar Polar H 10 qurilmasi haqida batafsil ma’lumotlarga ega bo‘lishdi.

Undan tashqari Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi sportchilarida ham joriy yilning 14-noyabr kuni Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti va Respublika olimpiya va paralimpiya sportchilar tayyorlash markazi o‘rtasida tuzilgan memorandum ijrosini ta’minlash maqsadida markazning o‘quvchi-sportchilari o‘rtasida ilmiy tadqiqotlar o‘tkazildi. Unga ko‘ra, Boks bo‘limining 7-sinf o‘quvchilarining antropometrik ko‘rsatkichlari bo‘yicha tana uzunligi, vazni, ko‘krak qafasi aylanasi (tinch holatda, nafas olganda va chiqarganda), qo‘l va son aylanasi hamda yelka kengliklari o‘rganildi. Yosh bokschilarning bioimpedansometriya metodi orqali tana tarkibini tuzilishi aniqlandi. Olingan natijalar umumlashtirilib tahlil qilish asosida jismoniy rivojlanishining me’yor ko‘rsatkichlari to‘g‘risida murabbiylarga taklif va tavsiyalar berib o‘tildi.

Toshkent viloyati Chirchiq OPSTTM Qilichbozlik yo‘nalishida shug‘ullanuvchilar bilan tajriba o‘tkazdik. Tadqiqotda qilichboz sportchi o‘g‘il bolalarni organizmining tana tarkibini aniqlash uchun zamonaviy raqamli “Tanita” uskunasi orqali tekshiruvlar amalga oshirildi.


O‘zbekiston milliy terma jamoa a’zolarining va yuqori malakali sportchilarni o‘quv mashg‘ulot yig‘inlarini o‘tkazish davrida kompleks ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish va innovatsion texnologiyalarni keng qo‘llash yuzasidan Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlari instituti tomonidan respublika va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar tashkil etildi. Shu bilan bir qatorda, Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti tomonidan sport mashg‘ulotlarini rejalashtirish bo‘yicha kerakli tavsiyalar ishlab chiqildi.

II BOB. JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTIDA TASHKILIY-USLUBIY ISHLAR

§2.1. Laboratoriya sharoitida dastlabki tadqiqot ishlari olib borildi

Bugun Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar institutida tashkil etilgan zamonaviy laboratoriya sharoitida pedagog-olimlarimiz dastlabki tadqiqot ishlarini boshlab yuborishdi.





Tadqiqotda O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining futbol ixtisosligida tahsil olayotgan talaba-sportchilarni funksional holati o‘rganildi.

Laboratoriya tahlili natijalari talaba-sportchilarni funksional holatini to‘g‘ri baholashga imkon berib, sportchi tayyorgarligining kuchli va kuchsiz tomonlari to‘g‘risidagi to‘liq va aniq ma’lumotlar olish imkonini beradi.

§2.2. O‘zbekiston respublikasi mustaqillik kuniga bag‘ishlangan “Yangi nafas” ommaviy yugurish musobaqasining yakuniy tahlili

2023 yilning 3-sentabr kuni mustaqilligimizning 32 yilligiga bag‘ishlangan “Bir davlat, bitta start, bir masofa, bitta maqsad – birga yuguramiz!” shiori ostida “Yangi nafas” xalqaro yugurish musobaqasida Toshkent, Nukus, Samarqand, Jizzax, Navoiy,



Buxoro, Qorovulbozor, Qarshi, G‘uzor, Termiz, Guliston, Nurafshon, Andijon, Namangan, Farg‘ona va Xiva shaharlarida tashkil qilindi.

Shu kuni Respublikamizning har bir viloyatida va Qoraqalpog‘iston Respublikasida 100 mingga yaqin yuguruvchi shaharlarning markaziy ko‘chalari bo‘ylab ommaviy yugurish bilan mamlakatimiz bosh bayramini nishonladi. Poytaxtimizdagi “Yangi Nafas” barcha shahar yugurish musobaqalarining ramziy joyi – “Humo Arena” sport maydoni hududida bo‘lib o‘tdi. Poytaxtdagi poygada 7000 dan ortiq ishtirokchi, jumladan, Toshkent shahridagi 50 ta oliy o‘quv yurtidan 3000 ga yaqin talaba ishtirok etdi.

Tadbir O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Milliy olimpiya qo‘mitasi, O‘zbekiston, Yoshlar masalalari agentligi, ishtirokchi shaharlar hokimliklari, “O‘zbekneftgaz” AJ va O‘zbekiston Yengil atletika federatsiyasi hamkorligida tashkil etildi.

Toshkentdagi yugurish dasturiga 3 va 10 km.lik ikki masofa kiritilgan. Boshqa shaharlar uchun “Yangi nafas” sport harakatining yagona ramziy masofasi 3 km.da o‘tkazildi.

Ta’kidlash joizki, “Yangi nafas” xalqaro sport musobaqalarida fuqaroligidan qat’i nazar, barcha ishtirok etishi mumkin. Keng miqyosdagi sport bayramiga 30 ta xorijiy davlatdan vakillar tashrif buyurdi. “Yangi nafas” poygasini qo‘llab-quvvatlash uchun Qozog‘iston, Tojikiston, Turkmaniston va Qirg‘izistondan 400 nafarga yaqin yugurish klublari a’zolari tashrif buyurishdi.



Toshkentdagi tadbirning ochilishida O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri Ibrohim Abdurahmonov tabrik so‘zi bilan so‘zga chiqib, sport tadbirining barcha ishtirokchilarini O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligi kuni bilan tabrikladi va Asosiy davlat sanalarida “Yangi Nafas” sport musobaqalarini o‘tkazish bugungi kunda yaxshi an’anaga aylangan. Respublikamizning har

bir fuqarosi qo‘shilishi mumkin bo‘lgan “Yangi nafas” sport harakati ruhiy quvvat, vatanparvarlik tuyg‘usi, butun yurt bilan hamjihatlik tuyg‘ulari jipslashgan harakatga aylandi.



Shuningdek, “Yangi nafas” yugurish musobaqasining ochilishida mamlakatimiz Bosh vaziri o‘rinbosari Zulayho Maxkamova, Respublika Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi kotibi Viktor Mahmudov hamda O‘zbekiston yoshlar siyosati va sport vaziri Adham Ikromovlar so‘zga chiqdilar.

Ommaviy yugurish musobaqasining uch yil davomida 700 mingdan ortiq ishtirokchi “Yangi nafas” sport harakati bayrog‘i ostida birlashgan bo‘lib, undan ko‘zlangan asosiy maqsad millat salomatligini mustahkamlash, faol turmush tarzini ommalashtirishdan iborat. Shu munosabat bilan hududlarda ommaviy sport va yengil atletikaga qiziqish faol ortdi. Mazkur “Yangi nafas” poygasiga tayyorgarlik doirasida Farg‘ona viloyisi va Samarqandda yengil atletika federatsiyasi ishtirokida matbuot anjumanlari tashkil etilib, keng ko‘lamli musobaqaga tayyorgarlik ko‘rildi.

An’anaga ko‘ra, “Yangi nafas” yugurish musobaqasida “Sport” telekanali tomonidan Toshkent shahridagi “Humo Arena” maydonida ishtirokchi shaharlar ishtirokida sport musobaqasining jonli efiri tashkil etildi.

	OTM talabalari orasida shaxsiy birinchilik	O'rin	Erkaklar		Ayollar	
		1	Qavonchbek Otabekov	1 500 000 so'm	Zarina Qulmaxmatova	1 500 000 so'm
		2	Xudoyor Abdushukurov	1 000 000 so'm	Malika Atamurodova	1 000 000 so'm
		3	Nurbek Abdumanopov	500 000 so'm	Madina Shodaliyeva	500 000 so'm
	OTM jamoalari orasida birinchilik	O'rin				
		1	Toshkent Kimyo Texnologiya Instituti			Kubok
		2	Toshkent tibbiyot akademiyasi			Kubok
		3	Iqtisodiyot			Kubok
	Inklyuziv ishtirokchilar orasida birinchilik	O'rin	Erkaklar		Ayollar	
		1	Bekzod Egamberdiyev (qulog'i eshitmaydiganlar)	1 000 000 so'm	Eshmirzayeva Go'zal (qulog'i eshitmaydiganlar)	1 000 000 so'm
		1	Anatoliy Zorin (imkoniyati cheklanganlar)	1 000 000 so'm	Manzura Ismatova (imkoniyati cheklanganlar)	1 000 000 so'm
		1	Elmurod Mamadiyev (ko'zi ojizlar)	1 000 000 so'm	Nelya Nafigova (ko'zi ojizlar)	1 000 000 so'm

10 km masofada g'olib va sovrindorlar

Masofasi	Turi	O'rin	F.I.Sh. Erkaklar	Pul mukofoti va sovg'a	F.I.Sh. Ayollar	Pul mukofoti va sovg'a
10 km	Mutlaq toifa	1	Nodirbek Mutalipov	1 500 000 so'm	Aziza Mirzakbarova	1 500 000 so'm
		2	Bekzod Boymatov	1 000 000 so'm	Akbelek Kuralbai	1 000 000 so'm
		3	Oybek Mamatkomilov	500 000 so'm	Moxinabonu Kaminiva	500 000 so'm
	35 yoshgacha bo'lgan havaskor ishtirokchilar	O'rin	Erkaklar			
		1	Ablabekov Elaman	1 500 000 so'm	Mariyam Tojiboyeva	1 500 000 so'm
		2	Kosimov Siddikjon	1 000 000 so'm	Diyora Valijanova	1 000 000 so'm
		3	Kasimbekov Azat	500 000 so'm	Yekaterina Garaninova	500 000 so'm
	35 yoshdan katta bo'lgan xizmatchi	O'rin	Erkaklar		Ayollar	
		1	N.Axmedov	1 500 000 so'm	Asem Sagatova	1 500 000 so'm
		2	Amankul Toktogulov	1 000 000 so'm	Oydina Ubaydullaxo'jayeva	1 000 000 so'm
		3	Dmitriy Kinashev	500 000 so'm	Anna Kourova	500 000 so'm
	Eng yosh ishtirokchi	O'rin	O'g'il bola		Qiz bola	
		1	Binyomin Sharifzoda	500 000 so'm	Silva Yuri	500 000 so'm
	Eng yoshi ulug' ishtirokchi	O'rin	Erkak		Ayol	
		1	Valeriy Ustyugin	500 000 so'm	Marina Orlova	500 000 so'm

3 km masofada g‘olib va sovrindorlar

Masofasi	Turi	O‘rin	Erkaklar	Pul mukofoti va sovg‘a	Ayollar	Pul mukofoti va sovg‘a
3 km	Mutlaq toifa	1	Eldiyar Kadirov	1 500 000 so‘m	Shoxsanam Xurramova	1 500 000 so‘m
		2	Xasan Mirsoatov	1 000 000 so‘m	Anastasiya Silchenkova	1 000 000 so‘m
		3	Jaxongir Raxmatullayev	500 000 so‘m	I.M.Bekmirzayeva	500 000 so‘m
	Eng yosh ishtirokchi	O‘rin	O‘g‘il bola		Qiz bola	
		1	Kasper Luiz	500 000 so‘m	Katya Jakson Faydora Jakson	500 000 so‘m
	Eng yoshi ulug‘ ishtirokchi	O‘rin	Erkak		Ayol	
		1	Xashimov Asad	500 000 so‘m	Mira Muxtara	500 000 so‘m
	35 yoshgacha bo‘lgan harbiy xizmatchi	O‘rin	Erkaklar		Ayollar	
		1	Xasan Mirsoatov	1 500 000 so‘m	Oydina Ikromova	1 500 000 so‘m
		2	Jaxongir Raxmatullayev	1 000 000 so‘m	Sevara Choriyeva	1 000 000 so‘m
		3	Vladislav Mamedov	500 000 so‘m	Benazir Xakimova	500 000 so‘m
	35 yoshdan katta bo‘lgan harbiy xizmatchi	O‘rin	Erkaklar			
		1	Ilxom Nazarov	1 500 000 so‘m		1 500 000 so‘m
		2	Ramil Gumirov	1 000 000 so‘m		1 000 000 so‘m
		3	G‘ayrat Yusupov	500 000 so‘m		500 000 so‘m
	Harbiylar kursantlar	O‘rin	Erkaklar		Ayollar	
		1	Durbek Toshpo‘latov (Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti)	1 500 000 so‘m	I.M.Bekmirzayeva	1 500 000 so‘m
		2	Akobir Kironboyev (Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasi)	1 000 000 so‘m	M.M.Kushmurodova	1 000 000 so‘m
		3	Abdulaziz Boyqo‘ziyev (Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti)	500 000 so‘m	M.S.Narzullayeva	500 000 so‘m
	Kuch tuzilmalar orasida birinchiligi	O‘rin				
		1	Xasan Mirsoatov			Kubok
		2	Yevgeniy Fadeyev			Kubok
		3	Ilxom Nazarov			Kubok
		4	Siroj Ravshanov			Kubok
		5	Xurshid Raximbayev			Kubok
		6	Nuriddin Raxmatov			Kubok
		7	Begzod Toshpulatov			Kubok

§2.3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasida xizmat qilayotgan vazni me’yordan ortiq xodimlarni vaznini me’yorga keltirish bo‘yicha o‘quv mashg‘ulot seminari

Hozirgi vaqtda semirish har qanday yoshda yuzaga keladigan surunkali metabolik kasallik sifatida qaraladi. Bu, asosan, yog‘ to‘qimalarining to‘planishi tufayli tana vaznining haddan tashqari ko‘payishi bilan namoyon bo‘ladi, bu aholining umumiy kasallanishi va o‘limi holatlarining ko‘payishi bilan birga keladi.



Shu munosabat bilan joriy yilning 18 sentabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasida xizmat qilayotgan Vazni me’yordan ortiq xodimlarni vaznini me’yorga keltirish bo‘yicha o‘quv mashg‘ulot o‘tkazildi. Unda Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti Ommaviy sportni tadqiq qilish laboratoriyasi mudiri, PhD G‘.S. Xo‘jamkeldiyev tomonidan "Aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish" mavzusida ilmiy — amaliy seminar tashkil etildi.

§2.4. O‘zDJTSUda “Energiyani tejang” shiori ostida marafon tashkil etildi

Bugun O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy kengashi tashabbusi bilan Jismoniy tarbiya va ilmiy tadqiqotlar instituti hamkorligida yurtimizda 5-maratoba tashkil etilayotgan Yevropa harakatlanish haftasi doirasida “Energiyani tajang” shiori ostida yugurish marafoni o‘tkazildi.



Dastlab, so‘zga chiqqan O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Toshkent viloyati kengashi raisi M. Hamzayev, universitet Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy

ishlar bo'yicha birinchi prorektor Sh. Mirzanovlar, ushbu marafon – aholiga harakatlanishning ekologik toza vositalari – piyoda, velosipedda, metro va tramvayda yurishdan foydalanishni taklif etish, bunday tanlov esa energiyani tejabgina qolmay, atrof-muhit holatini ham yaxshilashi va odamlar farovonligi darajasini oshirishga xizmat qilishini alohida qayd etishdi.

Aytish joizki, marafonda 1000 ga yaqin universitet talabalari, professor-o'qituvchilari va institut ilmiy xodimlari, shuningdek Toshkent viloyati yoshlar siyosati va sport bosh boshqarmasi vakillari ham faol ishtirok etib, o'zlarini sog'lom hayot tarafdori ekanliklarini namoyon etishdi.

§2.5. Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar institutl laboratoriyasiga ilmiy sayohat



O'zbekiston-Belorussiya jismoniy tarbiya, sport va turizm fakultetida qo'shma ta'lim dasturlari asosida tahsil olayotgan magistrantlar institut laboratoriyasi bilan yaqindan tanishdi. Hozirgi jadallashib borayotgan zamonaviy sportda sportchilarning funksional, psixologik va jismoniy tayyorgarligi bo'yicha ilmiy tomondan yondashish orqali yuqori sport natijalariga erishishda ilmiy laboratoriyaning o'rni muhim ekanligi tushuntirib o'tildi. Ular laboratoriya jihozlari bilan tanishish bilan bir qatorda magistrlik ilmiy ishida qo'llaniladigan kerakli jihozlar haqida ma'lumotlarga ega bo'ldilar. Tadbir so'ngida magistr talabalar o'zlarining qiziqtirgan savollariga javob olishdi.

§2.6. Xitoy xalq Respublikasi Wuhan Sport universiteti delegatsiyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar institutiga tashrifi



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-noyabrdagi PQ-414-son qaroriga asosan Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlari instituti tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari sifatini tubdan yaxshilash, ilg‘or xorijiy sport-ta’lim texnologiyalarining transferini amalga oshirish orqali yuqori natijalarga erishish bo‘yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

Tashrif davomida xorijiy mutaxassislar institutning mavjud ilmiy laboratoriya va ilmiy tadqiqot ishlari, magistrant, doktorant va tayanch doktorantlarga yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishishdi va kelgusida hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlash uchun ustuvor vazifalar belgilab olindi.

§2.7. O‘zbekiston yengil atletika federatsiyasi milliy tema jamoasining Uzoq masofaga yuguruvchi sportchilari ustida bioimpedans tarozisi yordamida tadqiqotlar



Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti yetakchi ilmiy xodimlari tomonidan O‘zbekiston yengil atletika federatsiyasi milliy tema jamoasining Uzoq masofaga yuguruvchi sportchilari ustida bioimpedans tarozisi yordamida jismoniy rivojlanish darajasi nazoratdan o‘tkazildi. Sportchilarning asosan organizmning umumiy suv miqdori past darajada ekanligi aniqlandi va kun davomida suyuqlik iste’molini ko‘paytirish bo‘yicha kerakli ma’lumotlar berib o‘tildi.

§2.8. "Yangi nafas" ommaviy yugurish marafonini tashkil etish va musobaqa natijalarining tahlili

Joriy yilning 19-noyabr kuni yurtimiz bo'ylab O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i qabul qilingan kunning 32 yilligi munosabati bilan "Yangi nafas" ommaviy yugurish musobaqasi bo'lib o'tdi. Mamlakatimizning 16 ta shahrida bir vaqtda tashkil etilgan sport tadbiri sog'lom turmush tarzi tarafdorlarini o'zida jamladi.

Musobaqa Toshkent shahrida 3 va 10 km, Nurafshon, Guliston, Andijon, Namangan, Farg'ona, Jizzax, Samarqand, Navoiy, Buxoro, Qorovulbozor, Termiz, Qarshi, G'uzor, Xiva va Nukus shaharlarida 3 km masofaga yugurish bahslari bo'yicha tashkil etildi.



Poytaxtimizda o'tgan tantanali ochilish marosimida so'z olgan rasmiylar bu kabi musobaqalarni o'tkazish an'ana tusiga kirib qolgani, bu orqali mamlakatimiz aholisi orasida sog'lom turmush tarzi targ'iboti yanada kuchayib borayotgani haqida to'xtalishdi.

Bellashuvlarda hamyurtlarimizdan tashqari qo'shni mamlakatlardan ham atletlar ishtirok etishdi. Toshkent shahrida o'tgan poygalarning g'olib va sovrindorlari ro'yxati quyidagicha ko'rinish oldi:

3 km, ayollar:

1. Anastasiya Silchenkova
2. O'g'iloy Muzaffarova
3. Marjona Oqqo'ziyeva

Erkaklar:

1. Hasan Mirsoatov
2. Ahrorjon Mahmujadiyev
3. Shahram Abdurahmonov



10 km, ayollar:

1. Marina Xmelevskaya
2. Marjona Ahmadaliyeva
3. Alina Hakimova

Erkaklar:

1. Nodirbek Mutalipov
2. Baxtiyor O'tkirov
3. Eldiyor Qodirov



Davlat bayrog'i kuniga bag'ishlangan "Yangi nafas" ommaviy yugurish marafoni. Ushbu marafoni tashkil etishda Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar institutining "Ommaviy sportni tadqiq qilish" laboratoriyasi xodimlari faol ishtirok etishdi. Skandinavcha yuruvchilar uchun esa yurish texnikasini yanada takomillashtirishda Mirzoxid Azizovning PhD dissertatsiyasi metodik qo'llanma sifatida gadjetlariga elektron nusxasi tashlab berildi

§2.9. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiya kuniga bag'ishlangan "Yangi Nafas – ekiden" ommaviy yugurish musobaqasi xalqaro ommaviy yugurish marafonini tashkil etish va musobaqa natijalarining tahlili



Joriy yilning 24-dekabr kuni yurtimiz bo'ylab O'zbekiston Respublikasi konstitutsiya kuniga bag'ishlangan "Yangi Nafas – ekiden" ommaviy yugurish musobaqasi o'tkazildi.

Unda ishtirokchilar erkaklar, ayollar va aralash estafetada hamda boshqa toifalar bo'yicha raqobatlashdi. Musobaqaning miks yo'nalishida "Z Runteam" jamoasi, erkaklar o'rtasida "Mudofaa vazirligi", ayollar orasida "Radikteam" jamoalari marraga birinchi yetib keldi.

G'olib jamoalarga:
Birinchi o'rin uchun – 7 000 000 so'm;
Ikkinchi o'rin uchun – 5 000 000 so'm;
Uchinchi o'rin uchun – 3 000 000 so'm.

§2.10. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kunini munosib kutib olish va yuksak saviyada nishonlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasini Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish

to‘g‘risidagi” farmoyishini ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kunini munosib kutib olish va yuksak saviyada nishonlash, Asosiy qonunimizda belgilangan demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g‘oyalari atrofida fuqarolarni jipslashtirish, “Konstitutsiya – xalqchil davlat, barqaror taraqqiyot va farovon hayot asosi” degan bosh g‘oyani o‘zida mujassam etgan tashkiliy-amaliy hamda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni samarali tashkil etish maqsadida mashhur sportchilarning jumladan, Yengil atletikaning sportcha yurish turi bo‘yicha O‘zbekiston rekordchisi Diana Yafasova, marafon bo‘yicha O‘zbekiston rekordchisi, 2024 yilda bo‘lib o‘tadigan Olimpiya o‘yinlari yo‘llanmasi qo‘lga kiritgan sportchi Shoxruh Davlatov, uch hatlab sakrash bo‘yicha jahon chempioni Sharifa Davronova, velosport bo‘yicha Olimpiya o‘yinlari ishtirokchisi Murod Xolmurodov, belbog‘i kurash bo‘yicha 2 karra chempioni Zaylobiddin Artiqov kabi sportchilar ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalarida Konstitutsiyaga oid o‘zlarining videoroliklarini joylashtirishdi.

Unda, Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha orzu-umidlari va intilishlari o‘z aksini topganligi hamda Yangi tahrirdagi Konstitutsiya Yangi O‘zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berib o‘tganligi haqida fikrlarini qoldirishgan.

Shu bilan birga, Yangi konstitutsiyaga oid ma’lumotlarini targ‘ibot ishlari davom etmoqda.

§2.11. Institutning 2023-yil davomida Sport federatsiya (assotsiatsiya)lari bilan memorandumlar tuzish to‘g‘risida ma’lumot

Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti hamda O‘zbekiston federatsiyalari o‘rtasida ilmiy-uslubiy va innovatsion texnologiyalar asosida sport turlarini yanada takomillashtirish bo‘yicha o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish maqsadida tuzilishi amalga oshirilmoqda. Ushbu Memorandum mamlakatimizda sport turini yanada rivojlantirish, yuqori mahoratli sportchilar va kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, xususan,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5924-son farmoni hamda ushbu farmon bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni 2025 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5 noyabrdagi “2024 yil Parij shahrida (Fransiya) bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida”gi PQ-5281-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 3 noyabrdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-414-son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, bevosita milliy terma jamoalar bilan ishlash, o‘quv-mashg‘ulotlarni ilmiy asosda tashkil qilish va trenerlar malakasini oshirish, ilmiy izlanishlar olib borayotgan yosh olimlarni dolzarb muammolar yechimiga yo‘naltirilgan mavzular asosida ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishda federatsiya bilan hamkorlik qilish maqsadida tuzildi.

Mazkur Memorandumda O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”, “Ta’lim to‘g‘risida”, “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”, “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”, “Nodavlat notijorat tash-kilotlari to‘g‘risida”gi qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari va dasturlarida jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid vazifalar ijrosini ta’minlash masalalari nazarda tutiladi.

Respublika sport federatsiya (assotsiatsiya)lari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish maqsadida Sport federatsiya (assotsiatsiya)lari bilan quyidagi federatsiyalar bilan memorandumlar imzolandi.

2023 yil 9 – yanvar kuni O‘zbekiston belbog‘i kurash federatsiyasi, 2023 yil 20 yanvar kuni O‘zbekiston chim ustida xokkey federatsiyasi, 2023 yil 3 – fevral kuni O‘zbekiston bahodirlar o‘yini va tosh ko‘tarish federatsiyasi, 2023 yil 6 – mart kuni O‘zbekiston Turon yakkakurashi federatsiyasi, 2023 yil 3 – aprel kuni O‘zbekiston stol tennisi federatsiyasi, 2023 yil 4 – may kuni O‘zbekiston qilichbozlik federatsiyasi, 2023 yil 2 – iyun kuni O‘zbekiston kriket federatsiyasi, 2023 yil 3 – iyul kuni

O‘zbekiston velosport federatsiyasi, 2023 yil 1 – avgust kuni O‘zbekiston gimnastika federatsiyasi, 2023 yil 5 – sentabr kuni O‘zbekiston kikboksing federatsiyasi, 2023 yil 3 – oktabr kuni O‘zbekiston shashka federatsiyasi, 2023 yil 4 – oktabr kuni O‘zbekiston uloq ko‘pkari federatsiyasi, 2023 yil 10 – oktabr kuni O‘zbekiston velosport federatsiyasi, 2023 yil 10 – oktabr kuni O‘zbekiston velosport federatsiyasi, 2023 yil 13 – oktabr kuni O‘zbekiston basketbol federatsiyalari bilan memorandumlar tuzildi.

Ushbu memorandum doirasida Jismoniy tarbiya va sport sohasida ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Institut tomonidan quyidagi vazifalar hal qilinadi: jismoniy tarbiya va sport sohasida, shu jumladan sport biomexanikasi, fiziologiyasi, farmakologiyasi va genetikasi bo‘yicha fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar o‘tkazish, ularning natijalarini amaliyotga joriy etish;

aholining yosh xususiyatidan kelib chiqib, jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligini ilmiy asosda o‘rganish va tavsiyalar ishlab chiqish;

sport turlari bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoalari (yoshlar, o‘smirlar va kattalar) a’zolarining hamda sport-ta’lim muassasalari sportchi o‘quvchi va talabalarining jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligi, funksional holati, texnik-taktik va psixologik tayyorgarligini ilmiy jihatdan o‘rganish, monitoring qilish va istiqbolini belgilash;

ilmiy-innovatsion faoliyat natijalarining transferi va ularni tijoratlashtirish, startap loyihalarni joriy etish orqali yoshlar, olimlar va professor-o‘qituvchilarni jismoniy tarbiya va sport sohasining ilmiy-texnik muammolarini hal etishga jalb qilish;

jismoniy tarbiya va sport sohasidagi xalqaro va mahalliy tashkilotlarning olimlari, mutaxassislari ishtirokida mahorat darslari, seminar-treninglar, davra suhbatlari, uchrashuvlar, shuningdek, ilmiy-amaliy konferensiyalar va anjumanlar, tanlovlar o‘tkazishlar amalga oshiriladi.

§2.12. Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti Sportchilarni funksional va psixodiagnostika qilish laboratoriyasi jihozlari (asbob-uskunalar) bo‘yicha


MA’LUMOT

№	Rasmi	Jihoz haqida ma’lumot	Summasi
1.	 **Tanita** (Inner scan) BC-587	Mazkur tarozi inson 9 xil funksional holatini monitoring qilish uchun mo‘ljallangan. Maksimal 200 kg yuk ko‘taradi.	
2.	 **Tanita** Body composition monitor BC-401-BK	Mazkur tarozi inson 9 xil funksional holatini monitoring qilish uchun mo‘ljallangan. Maksimal 200 kg yuk ko‘taradi. Bluetooth orqali mobil telefonga ulanadi.	
3.	 **Bathroom scale** Camry model: DT 613	Tekshiriluvchilarni og‘irligini aniqlashda foydalaniladi	**370 000**
4.	 **Polar — H 10** (improved connectivity)	Sportchilarni funksional holatini aniqlash va tahlil qilishda foydalaniladi. Bluetooth orqali mobil telefonga ulanadi.	
5.	 **Epson L 850**	Mazkur rangli printer olingan ma’lumotlarni chop etish uchun	**13 822 000**

	(rangli printer)		
6.	 **Canon** (oq-qora)	Mazkur rangli printer olingan ma'lumotlarni chop etish uchun	**11 000 000**
7.	 **Kushetka**	Mazkur kushetka laboratoriya jarayonlarini olib borishda	
8.	 **Noutbuk (Victus)** Core i7 (qora rang)	Ilmiy tadqiqot ishlari hamda o'quv jarayonini amalga oshirishda foydalaniladi.	**12 950 000**
9.	 **Noutbuk (Victus)** Core i7 (oq rang)	Ilmiy tadqiqot ishlari hamda o'quv jarayonini amalga oshirishda foydalaniladi.	**13 920 000**
